



BALIQCHILIK TARMOG'II ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALAR VA ILMYI YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 11-iyun kuni baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Baliqchilik oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq aholisi daromadlarini oshirish va suv resurslaridan samarali foydalanishda muhim yo'nalish hisoblanadi. Dunyoda akvakultura jadal rivojlanmoqda. Ilk bor yetishtirilgan baliq hajmi tibbiy suv havzalarida ovlangan baliq miqdoridan oshib ketdi.

Yurtimizda bu sohani rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar bor. O'zbekistonda 173 ming kilometr daryo va kanal o'zanlari mavjud. Suv resurslari cheklangan bo'lishiga qaramasdan, mamlakatimiz Markaziy Osiyoda baliq yetishtirish hajmi bo'yicha yetakchi o'rinda turibdi. 2025-yilda 206 ming tonna baliq yetishtirilgan.

So'nggi yillarda aholi soni o'sishi bilan oqsilli mahsulotlarga bo'lgan talab ham oshib bormoqda. Baliq esa iqtisodiy jihatdan samarali, parhezboq va aholi salomatligi uchun foydali ozuqa manbaidir. Shu bois, oddiy ko'l baliqchiligidan suvni tejaydigan, qayta aylantiradigan va intensiv texnologiyalarga asoslangan tizimga o'tish zarurligi ta'kidlandi.

Taqdimotda 329 ta tibbiy suv havzasi va suv ombori hamda ular atrofidagi 163 ming gektar yer maydonlarini ijaraga berishning yangi, shaffof tizimini joriy qilish, intensiv baliqchilik va naschilik xo'jaliklariga har yili zarur miqdordagi suv yetkazib berish kafolatlanishi lozimligi qayd etildi.

Bugungi kunda intensiv usulda baliq yetishtirish hajmi umumiy ishlab chiqarishning 20 foizidan oshmayapti. Vaholanki, bunday texnologiyalar hosildorlik va daromadni bir necha barobar oshiradi. Agar mavjud imkoniyatlar to'liq ishga solinsa, baliq yetishtirish hajmini 5 barobar ko'paytirish mumkinligi aytib o'tildi.

Sohada yangi texnologiyalarni joriy etish va tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, xususan, yopiq suv aylanma tizimini o'rnatish xarajatlarining bir qismini qoplash, nasli ona baliqlarni import qilish uchun subsidiya ajratish, quyosh panelarini o'rnatish uchun subsidiya berish va aylanma mablag' uchun imtiyozli kreditlar foiz xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish lozimligi ta'kidlandi.

Baliqchilik xo'jaliklariga kreditlar ajratish, milliy va xorijiy valyutadagi

kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qisman qoplash mexanizmlari joriy etiladi.

Ushbu imkoniyatlar hisobiga keyingi yilda baliq yetishtirish hajmini 500 ming tonnadan oshirish choralari ta'kidlandi.

Taqdimotda naschilik va ilmiy yondashuv masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Sifatli chavoq va yaxshi genetik yuqori hosildorlikning asosiy sharti ekani ta'kidlandi. Shu bois, karp, laqqa, forel, osyotr kabi baliq turlarining naslini yaxshilash, yangi zotlarni mahalliy iqlim sharoitiga moslashtirish bo'yicha ishlar yo'lga qo'yildi.

Kelgusi yildan tog' oldi hududlarida yiliga forel va osyotr baliq yetishtirish quvvatlarini yaratish rejalashtirilgan. Baliqchilik ilmiy-tadqiqot instituti uchun Ohangaron daryosi bo'yida tajriba-sinov maydoni tashkil etiladi. Milliy karp zotini yaratish bo'yicha xorijiy grantlar jalb etiladi.

Sohada malakali kadrlar tayyorlash ham muhim vazifa sifatida belgilandi. Toshkent davlat agrar universitetida Astraxan davlat texnika universiteti va Xitoyning Daljan okean universiteti bilan hamkorlikda baliqchilik va akvakultura bo'yicha qo'shma fakultet ochish taklifi ko'rib chiqildi.

Baliqchilik tarmog'ini raqamlashtirish masalasiga alohida e'tibor o'tildi. Suvdan foydalanish holati, yer maydonlari, noqonuniy baliq ovlash, soliq to'lovlari, ovlangan baliq mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni birlashtirgan yagona elektron platformani yaratish taklif qilindi. Sohaga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilishni kengaytirish orqali xarajatlarni qisqartirish va mahsuldorlikni oshirish mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

Prezidentimiz takliflarni ma'qullab, sohani qo'llab-quvvatlash choralari yanada kengaytirish zarurligini qayd etdi.

Mutasaddirlarga baliqchilik tarmog'ini zamonaviy texnologiyalar, ilmiy yondashuv va samarali boshqaruv asosida rivojlantirish, tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va aholi dasturxoniga noqonuniy muomalasiga rahnamolik qilish, bangixona tashkil etish kabi qilmishlar uchun alohida javobgarlik belgilanmoqda. Shuningdek, 10 dan ortiq xavfli qilmish bo'yicha jazo choralari og'irlashtiriladi.

O'zA

ONKOLOGIK VA GEMATOLOGIK IXTISOSLASHTIRILGAN TIBBIY YORDAM KO'RSATISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev onkologik va gematologik tibbiy yordam va palliativ xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish, davlat tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda aholi salomatligini muhofaza qilish, og'ir kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, onkologik, gematologik va onkogematologik kasalliklarga chalingan bemorlarga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish, palliativ va xospis xizmatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Taqdimotda saraton kasalliklarining oldini olish, erta aniqlash va davolash tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, aholi o'rtasida eng ko'p uchraydigan saraton kasalliklari bo'yicha maqsadli tibbiy tekshiruvlar bilan qamrab olishni kamida 60 foizga yetkazish, saraton kasalliklariga chalingan bemorlar orasida 5 yillik umr davomiyliigi ko'rsatkichini 35 foizdan kamida 45 foizga oshirish maqsad qilingan.

Buning uchun 2027-yildan boshlab Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va xalqaro ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan saratonga qarshi kurashish bo'yicha Milliy dastur hududlarda bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Mazkur dastur doirasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari xodimlarining onkologik hushyorligi oshiriladi. Ular saraton kasalliklarining dastlabki belgilarini aniqlash va bemorlarni o'z vaqtida ixtisoslashgan muassasalarga yo'naltirish bo'yicha qayta tayyorlanadi.

Shuningdek, xalqaro tavsiyalar asosida klinik qo'llanmalar qabul qilinadi. Onkologiya yo'nalishida multidissiplinar jamoaviy yondashuv — bir nechta mutaxassis ishtirokida bemorga tashxis qo'yish va davolash taktikasi joriy etiladi.

Eng ko'p uchraydigan saraton kasalliklarini erta tashxislash dasturlari ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amaliyotga kiritiladi. Bemorlarni qisqa muddatda tekshiruvdan o'tkazish va tashxis qo'yish imkonini beradigan tezkor tashxislash yo'nalishlari yo'lga qo'yiladi.

Nur terapiyasi xizmatini modernizatsiya qilishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, eskirgan kobalt qurilmalari bosqichma-bosqich zamonaviy chiziqli tezlatkichlarga almashiriladi, yuqori dozali braxiterapiya imkoniyatlari kengaytiriladi.

Palliativ va xospis yordamini rivojlantirish masalalariga alohida o'talib b'yoriladi. 2030-yilga qadar aholiga bunday yordam ko'rsatish qamrovini kamida 80 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Buning uchun 2026-yil 1-sentabrdan boshlab respublikada palliativ va xospis yordamini ko'rsatishning yagona tizimi tibbiy va ijtimoiy xizmatlar integratsiyasi asosida tashkil etiladi. Palliativ yordamga muhtoj shaxslarni aniqlash, yo'llash, hisobga olish va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlari elektron axborot tizimi orqali amalga oshiriladi.

Mobil palliativ brigadalar faoliyati yo'lga qo'yilib, uy sharoitida tibbiy va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ta'minlanadi. Stasionar

sharoitdagi palliativ yordam davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlari hamda xospislar tomonidan ko'rsatiladi.

Aholining ehtiyojlaridan kelib chiqib, barcha hududlarda xospis muassasalari bosqichma-bosqich tashkil qilinadi. Toshkent shahar hududlararo xospisi palliativ va xospis yordamini metodologik boshqarish, hududlarda mazkur xizmatni tashkil etishga ko'maklashish bo'yicha mas'ul muassasa etib belgilanadi.

Dastlab Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanida onkologik kasalligi sababli palliativ va xospis yordamiga muhtoj bemorlarga xizmat ko'rsatuvchi mobil palliativ brigadalar tashkil etiladi. Samarqand viloyatida og'ir va davolab bo'lmaydigan kasalliklarga chalingan bolalar uchun xospis shaklida palliativ yordam ko'rsatish markazining faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Palliativ va xospis yordamiga muhtojligi elektron axborot tizimida qayd etilgan bemorlarga tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasi tomonidan qo'shimcha tibbiy tekshiruv va ko'rikarsiz nogironlik belgilanadi. Uy sharoitida parvarishga muhtoj bemorlar funksional krovat va maxsus matraslar bilan vaucher tizimi asosida ta'minlanadi.

Shuningdek, mahalla darajasida palliativ yordam ko'rsatish, uy sharoitida qarab turish va parvarish xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish, bemorlarning oila a'zolari uchun "Oilani qo'llab-quvvatlash" xizmatini yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

Taqdimotda gematologik va onkogematologik kasalliklarga chalingan

bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish choralari ham muhokama qilindi.

2026-2030-yillarda bunday kasalliklarni erta bosqichlarda aniqlash ulushini amaldagi 30-40 foizdan 60 foizgacha oshirish rejalashtirilgan. Bemorga tashxis qo'yilgan vaqtdan transplantatsiya amaliyotigacha bo'lgan muddatni 6 oydan 3 oygacha qisqartirish choralari ko'riladi.

Gematologik kasalliklarga chalingan bemorlarni 100 foiz ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam bilan qamrab olish, hududlarda gemopoeitik o'zak hujayralari transplantatsiyasi amaliyotlarini joriy etish ko'zda tutilmoqda.

Taqdimotda davlat tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritayotgan tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlash masalalari ham ko'rib chiqildi. Jumladan, kamida 15 yillik ish stajiga ega xodimlar farzandlarining respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatida o'qishi uchun yillik kontrakt to'lovining bir qismini, shuningdek, shunday ish stajiga ega xodimlar ipoteka krediti asosida uy-joy sotib olishida dastlabki badalning bir qismini qoplab berish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari takliflarni ma'qullab, ko'rib chiqilgan chora-tadbirlarni sifatli amalga oshirish, hududlarda onkologik va gematologik tibbiy yordamni aholiga yaqinlashtirish, zamonaviy tashxislash va davolash texnologiyalarini joriy etish yuzasidan topshiriqlar berdi.

O'zA

GIYOHVANDLIK VA NARKOJINOYATLARGA QARSHI KURASHISH, YO'LLARDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA TAKLIFLAR MA'QULLANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlikdan himoya qilish, shuningdek, yo'l harakati ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Avvalo, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning analoglari hamda kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan qonun mazmun-mohiyati haqida ma'lumot berildi. Ushbu qonun parlament tomonidan qabul qilindi.

Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga "Aholi salomatligi va genofondiga qarshi jinoyatlar" nomli yangi bob kiritilmoqda, bu orqali aholi, ayniqsa, yoshlar salomatligiga tahdid solayotgan xavfli qilmishlar uchun javobgarlik choralari kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Narkojinoyatlarning zamonaviy usul va shakllari inobatga olinib, g'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish, narkotiklarning noqonuniy muomalasiga rahnamolik qilish, bangixona tashkil etish kabi qilmishlar uchun alohida javobgarlik belgilanmoqda. Shuningdek, 10 dan ortiq xavfli qilmish bo'yicha jazo choralari og'irlashtiriladi.

Davlatimiz rahbari ushbu qonun narkojinoyatchilikka qarshi kurashishni yangi bosqichga olib chiqish, aholi salomatligi va millat genofondini himoya qilishda muhim huquqiy asos bo'lishini ta'kidladi hamda uni imzoladi.

Taqdimotda idoralararo ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan "Narkotiklar va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar to'g'risida"gi qonun loyihasi haqida ham axborot berildi.

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda narkovaziyat jiddiy o'zgarib, an'anaviy giyohvandlik vositalarining o'rini sintetik narkotiklar egallamoqda. Ularni tarqatish usullari ham o'zgarib, asosan, internet orqali kontakt shaklda amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mamlakat ichkarisida yashirin laboratoriyalar paydo bo'layotgani ushbu sohada huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Yangi qonun loyihasida davlat siyosatining 7 ta asosiy yo'nalishi belgilanmoqda. Ular orasida aholi, ayniqsa, xotin-qizlar

va yoshlarda "giyohvandlikka qarshi immunitet"ni shakllantirish, internet orqali sodir etilayotgan narkojinoyatlarga barham berish, giyohvandlikning barvaqt profilaktikasi, diagnostikasi, davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya tizimini takomillashtirish kabi choralar mavjud.

Loyihada narkotiklar aylanmasi, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishda bevosita ishtirok etuvchi 14 ta davlat organining vazifa va vakolatlari aniq belgilanish nazarda tutilgan. Qonuniy muomaladagi moddalar ustidan davlat nazorati kuchaytirilib, ularni olib kirishdan tortib, realizatsiya qilishgacha bo'lgan jarayonlar uzluksiz elektron nazorat qilinadi.

Prekursorlar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar muomalasini qat'iy tartibga solishni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ham ko'rib chiqildi. Bu borada elektron nazorat tizimini joriy etish, noqonuniy holatlarga qarshi idoralararo hamkorlikni kuchaytirish muhimligi qayd etildi.

Taqdimotda yo'l-transport hodisalarining oldini olish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Ayrim fuqarolar tomonidan voyaga yetmagan shaxslarga transport vositasini boshqarishga ruxsat berilayotgani, bu esa yo'llarda o'lim va jiddiy jarohat olish holatlariga sabab bo'layotgani qayd etildi.

Shu bois, yangicha yondashuv asosida yo'l harakati qoidalariga rioya etilishini ta'minlash, og'ir oqibatli avariylarning oldini olish, buning uchun javobgarlikni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlar orasida mazkur illatning tarqalishiga qat'iy chek qo'yish, shuningdek, yo'llarda inson hayoti va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha takliflarni ma'qulladi. Muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'zA

QUYOSH, SHAMOL, SUV

Dolzarb mavzu

Xalqaro hamkorlik

INSON HUQUQLARI – CHEGARA BILMAS QADRIYAT Varshavadagi uchrashuv va muloqotlar

O'zbekiston "yashil" energetika inqilobini amalga oshirmoqda

SUV

Jahonda "yashil" taraqqiyotga intilib, bu yo'ldagi global harakatlarga qo'shilayotgan davlatlar soni tobora ortib bormoqda. Gap faqat tabiatni asrash, resurslarni saqlab qolib, kelajak avlodga yetkazish haqidagina bormayapti. Bugun ekologik barqarorlik tushunchasi biz o'ylaganimizdan ko'ra ancha kengaygan va u bevosita iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'lanmoqda. Keyingi yillarda aksariyat mamlakatlar o'z rivojlanish modelini aynan "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga o'tishda ko'rayotir. "Yashil" energetikani rivojlantirish esa bu borada eng faol yo'nalishlardan.

Yaqinda bir tanishim "Ekologik toza, "yashil" elektr energiyasi o'zi nima degani? Bu xonadonlarimizda yonib turgan chiroqlarning inson salomatligi uchun zararsiz ekanini anglatadimi?" deb savol berib qoldi. Bir qarashda savol bir oz noodat. Ammo mantiqan jon bor. Gap shundaki, "yashil" energetika —

atrof-muhitga ziyon yetkazmaydigan, zararli gaz chiqindilarini hosil qilmaydigan, qayta tiklanadigan tabiiy manbalar, xususan, quyosh, shamol, suv, yer osti issiqligidan olinadigan energiya turi. Ya'ni tabiat in'om etgan tabiiy manbalar hisobidan elektr toki ishlab chiqariladi. Undan an'anaviy gaz, ko'mir, neft yonilg'i turlaridan foydalanilmagani

bois, atrof-muhit va insonlar salomatligi uchun zararsiz sanaladi. Aytaylik, o'sha tanishimning xonadonida quyosh paneli o'rnatilgan va uyini yoritayotgan chiroq quyosh nurlaridan olinayapti. Demak, bu chiroqlar chindan ushbu xonadon egalari salomatligi uchun zararsiz.

► Davomi 3-beta

Bu muloqot uchun Varshava shahri tanlangani ham bejiz emas. U Yevropa qit'asida inson huquqlari, demokratiya, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyati masalalari muhokama qilinadigan muhim platformalardan biri sifatida tanilgan. Bu yerda turli mamlakatlar va nufuzli xalqaro institutlar vakillari inson qadriini ta'minlash, erkinliklarni himoya qilish va jamiyatda adolat tamoyillarini mustahkamlash

masalalari yuzasidan fikr almashib keladi. Ana shunday muhitda O'zbekiston tashabbusi bilan inson huquqlari, so'z erkinligi va gender tenglik masalalariga bag'ishlangan davra suhbatlari o'tkazilishi mamlakatimizdagi islohotlarni xalqaro jamoatchilikka yetkazish bilan birga tajriba almashish uchun muhim qadam bo'ldi.

► Davomi 3-beta

Prezidentimiz forumda yana bir muhim tashabbusni ilgari surdi. Bu kapital bozorini yanada rivojlantirish, barqaror moliyaviy va investitsiyaviy platformani shakllantirish maqsadida eng yaxshi standartlar asosida faoliyat yuritadigan Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etishdir.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

O'ZARO MANFAATLI ALOQALAR: ADOLATLI YO'LAKLAR, RAQAMLI ISHONCH VA RESURS XAVFSIZLIGI


O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar ko'pincha yirik raqamlar va davlatlararo kelishuvlar orqali baholanadi. Ammo bu raqamlar ortida dehqon mahsulotining bozorga o'z vaqtida yetib borishi, kichik tadbirkorning onlayn xaridor topishi, ishlab chiqaruvchining barqaror energiya ta'minoti va minglab ish o'rinlari ochish masalasi turibdi.

Nuqtayi nazar



Munosabat

O'zbekiston va Rossiya ko'p qirrali ikki tomonlama hamkorlikni yanada taraqqiy ettirish uchun ulkan salohiyatga ega. Keyingi yillarda ikki davlat munosabatlari izchil mustahkamlanib, turli sohalaridagi aloqalar jadal sur'atlarda rivojlanmoqda.



Munosabat

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar sifat jihatdan yangi bosqichga chiqdi. Davlat rahbarlari o'rtasidagi o'zaro ishonch, to'g'ri tashkil etilgan tizimli chora-tadbirlar samarasi bugun erishilayotgan yuksak natijalarda namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston uchun Rossiya mintaqadagi shunchaki qo'shni emas, balki vaqt sinovidan o'tgan strategik sherik va ittifoqchi. Bugun o'zaro munosabatlar yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilib, hamkorlik aloqalari mazmunan boyib, ko'p darajali va ko'p qirrali xususiyat kasb etmoqda.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik ham izchil sur'atda rivojlanmoqda. Joriy yil boshidan buyon o'zaro tovar ayiriboshlash hajmining 20 foiz oshgani buning yaqqol dalilidir. Sanoat, energetika, metallurgiya, transport, kimyo sanoati hamda iqtisodiyotning boshqa ustuvor tarmoqlarida ham yirik va ishtiqlik loyihalar amalga oshirilayotir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning siyosiy irodasi hamda birgalikdagi sa'y-harakati tufayli so'nggi yillarda O'zbekiston — Rossiya munosabatlari barcha soha va yo'nalishlarda misli ko'rilmas darajaga ko'tarildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida keng qamrovli strategik sheriklik to'g'risidagi deklaratsiya ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning mustahkam huquqiy poydevori vazifasini o'taypti.

So'nggi yillarda ikki davlat hududlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik tobora ravnaq topib, o'zaro manfaatli aloqalarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Amalga oshirilayotgan hududlararo loyihalar hajmi 5 milliard dollarni tashkil etayotgan bo'lsa, yana 5 milliard dollarlik investitsiyalar paketi tayyorlanmoqda. Bu esa hududlar o'rtasidagi amaliy hamkorlik izchil rivojlanib, yangi yo'nalishlar bilan boyib borayotgan dalolat beradi.

O'zaro hamkorlik barcha muhim soha, jumladan, energetika, kimyo va neft-kimyo, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, logistika, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati va boshqa tarmoqlarni qamrab olmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonning beshta hududida tashkil etilayotgan qo'shma sanoat parklari va Toshkentda ish boshlangan qo'shma vagonsozlik klasteri ushbu hamkorlikning amaliy natijasi sifatida juda muhim.

Hozir energetika sohasidagi hamkorlik ham tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Investitsiya loyihalari natijasida mamlakatimizda elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmi bir yarim barobar oshirildi. Ya'ni 58 milliard kilovatt-soatdan 87 milliard kilovatt-soatga yetkazildi. 2030-yilgacha generatsiyani 120 milliard kilovatt-soatgacha ko'paytirish rejalashtirilmoqda. Ushbu hajmning 54 foizini qayta tiklanadigan energiya manbalari tashkil etadi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarda parlamentlararo aloqalar muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishdagi hamkorlik parlamentlar vakillarining o'zaro tashriflari orqali izchil mustahkamlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi bilan Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Davlat Dumasining Hamkorlik bo'yicha parlamentlararo komissiyasi hamda hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhi parlamentlararo munosabatlarni mustahkamlashga kuchli turki bermoqda.

Prezidentimizning shu yil 4-5-iyun kunlari Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrif, shubhasiz, ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni rivojlantirishga katta sur'at bag'ishlab, o'zaro hamkorlik aloqalarida yangi sahifa ochadi.

O'zbekistonda integratsiyalashgan atom elektr stansiyasining birinchi energiya blokini qurish ishlari qayta boshlandi. Mazkur loyihaning amalga oshirilishi mamlakatimizning texnologik, industrial va ilmiy taraqqiyotida yangi bosqichni



Nargiza SALOMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

boshlab beradi. Eng muhimi, ushbu ulkan loyiha O'zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tashrif davomida mamlakatimiz yetakchisining Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan 29-Peterburg xalqaro iqtisodiy forumining yalpi yig'ilishida ishtirok etgani va nutq so'zlagani O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy mulqotlardagi faol va konstruktiv o'rini yana bir namoyon etdi. Ayniqsa, forum doirasida ilgari surilgan tashabbuslar mamlakatimizning mintaqaviy hamda global iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan izchil va pragmatik siyosatini yaqqol ifoda etadi.

Masalan, hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida qo'shma raqamli ekotizimni shakllantirishga kirishish haqidagi taklif ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni zamonaviy bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Bunday ekotizim savdo, logistika, to'lov xizmatlari, elektron tijorat, ma'lumotlar almashinuvi va raqamli servislarni yagona uyg'un platformada birlashtirib, biznes uchun yangi bozorlar, fuqarolar uchun esa daromad topishda qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Inson kapitalini rivojlantirish qo'shma onlayn-platformasini yaratish taklifi, avvalo, ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va mehnat bozori o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytirishga turki beradi. Asosiysi, bunday platforma yoshlar va mutaxassislar uchun zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallash, malaka oshirish, qayta tayyorlanish hamda raqobatbardosh kasblarni o'zlashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

Bu esa, o'z navbatida, ikki mamlakat o'rtasida ilmiy-ta'lim aloqalarni mustahkamlash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, mehnat resurslaridan samarali foydalanish va iqtisodiyotning yangi tarmoqlari uchun zarur mutaxassislar zaxirasini shakllantirishda muhim amaliy mexanizm bo'ladi.

Prezidentimizning madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida "Samarqanddan Peterburggacha" kreativ-turistik yo'lagi loyihasi ishga tushirish taklifi ham muhim tashabbuslardan bo'ldi. Ushbu loyiha ikki xalq o'rtasidagi madaniy mulqotni chuqurlashtirish, turistik aloqalarni kengaytirish va tarixiy-ma'naviy yaqinlikni yangi mazmun bilan boyitishga zamin yaratadi.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar ko'p qirrali, barqaror va ishtiqlik xususiyatga ega. Davlatimiz rahbarining Peterburg xalqaro iqtisodiy forumidagi nutqi va ilgari surgan dolzarb tashabbuslari mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy maydondagi faol pozitsiyasini namoyon etish, xorijiy investorlar va hamkor davlatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni kengaytirish, mintaqaviy va global iqtisodiy hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

va tomorqachilikning rivojlanishi oilalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlamoqda. Bu esa mahallada birlamchi ehtiyojlarni qoplash bilan birga kichik tadbirkorlik madaniyatini shakllanayotganini ham anglatadi.

Obodonlashtirish ishlari ham tizimli yo'lga qo'yilgan. Mahallamiz bog'i nafaqat ko'rkam hudud, balki aholining dam olish va mulqot maskaniga aylangan. Har yili xiyobonga 1800 tupdan ortiq mevali va manzarali ko'chat ekilishi ekologik muhitni yaxshilashga xizmat qilmoqda. Hasharlar aholini birlashtiruvchi ijtimoiy an'ana aylangan.

Eng muhimi, mahallamizda "Kambag'allikdan farononlik sari" tamoyili asosida tizimli ishlar bajarilmoqda. "Mahalla yetiligi" aholi bilan yaqin mulqotda bo'lib, har bir oilaning muammosini o'rganish va amaliy yechim topishga harakat qilayotir. Tinchlikni ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish va ishsizlikni kamaytirish borasidagi ishlar ham yaxlit tizimga solingan holda davom etmoqda.

Jambul URAZBAYEV,
Nukus shahridagi "Nao'bahar" mahalla fuqarolar yig'ini raisi



Ziyodulla MUHIDDINOV,
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti loyiha rahbari

Farg'ona vodiysida gilos pishganida yoki Samarqandda shaftoli terimi boshlanganida dehqon uchun bitta asosiy savol tug'iladi: mahsulot dunyo bozori, jumladan, Rossiyaga vaqtida yetib boradimi, yo'lda sifati buzilmaydimi, puli xavfsiz keladimi? Toshkentdagi tikuvchi yoki Buxorodagi hunarmand oldida ham shunga o'xshash savol paydo bo'ladi: mahsulotni Moskva, Qozon yoki Yekaterinburgdagi xaridorga qanday yetkazish mumkin?

Shu ma'noda, O'zbekiston — Rossiya iqtisodiy hamkorligi faqat diplomatik bayonotlar mavzusi emas, balki chegaradagi navbat, temir yo'lidagi vagon, bankdagi pul o'tkazmasi, gaz bosimi, internet do'konidagi buyurtma va o'zaro o'zaro daromad bilan bog'liq amaliy masalalar.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 81,2 milliard dollarga yetgan. Bu 2024-yildagiga nisbatan 20,7 foiz ko'p. Mazkur savdoda Xitoy 21,2 foiz ulush bilan birinchi, Rossiya 16 foiz ulush bilan ikkinchi yirik hamkor bo'ldi. Rossiya bilan savdo hajmi 13 milliard dollarga yaqinlashdi.

2026-yilning dastlabki to'rt oyida ham bu tendentsiya saqlandi: O'zbekiston tashqi savdo aylanmasida Xitoy 6,2 milliard dollar, Rossiya esa 4,5 milliard dollar bilan eng yirik sheriklar qatoridan joy oldi. Demak, Rossiya bozori O'zbekiston uchun nafaqat an'anaviy, balki hamon juda katta va amaliy ahamiyatga ega bozor bo'lib qolmoqda.

Bu, xalqona tushuntirganda, har yili ikki mamlakat o'rtasida minglab shartnoma, yuz minglab to'lov, millionlab tonna tovar va xizmatlar harakatlanadi degani. Ushbu jarayonda fermer, logistika kompaniyasi, bank, ishlab chiqaruvchi, onlayn sotuvchi va iste'molchi yagona zanjirga ulanadi.

Ikki davlat 2030-yilgacha o'zaro savdo hajmini 30 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilgan. Bunga erishish uchun ko'proq tovar sotishning o'zi yetarli emas. Savdo tarkibi ham o'zgarishi, xomashyo o'rini taylor mahsulot, o'zaro savdo o'rini qo'shma ishlab chiqarish va uzoq muddatli sheriklik egallashi kerak.

O'zbekiston dengizga chiqish imkoniga ega emasligi bois, eksportning katta qismi temir yo'l, avtomobil yo'li va aviatsiyaga bog'liq. Yo'l ishonchli bo'lmasa, eksportchi shartnoma tuzishdan qo'rqadi, dehqon mahsulotini ichki bozorda arzon sotishga majbur bo'ladi, zavod esa xomashyoni kech oladi.

2025-yilda O'zbekiston va Rossiya o'rtasida temir yo'l orqali yuk tashish ko'rsatkichi 19,3 foiz oshib, 8,6 million tonnaga yetdi. Ayaqatovlar ham iqtisodiy aloqalarning muhim qismiga aylannoqda: ikki mamlakat shaharlari o'rtasida haftasiga yuzlab reyslar

qatnamoqda. Bu faqat yo'lovchi oqimi emas, balki xizmatlar, kichik hajmli yuklar, ishbilarmonlik safarlari va turizm uchun ham imkoniyatdir.

Meva-sabzavot eksportida ham vaqt alohida ahamiyatga ega. Gilos yoki shaftoli uchun bir kunlik kechikish ham narx, sifat va xaridor ishonchiga ta'sir qiladi. Shuning uchun muzlatkichli konteynerlar, tezkor temir yo'l yo'nalishlari, "Agroekspress" kabi loyihalar va fitosanitar tekshiruvlarni soddalashtirish eksport uchun hal qiluvchi omildir.

Tadbirkorga kerakli asosiy omil — adolati yo'lak: tarif oldindan ma'lum bo'lishi, hujjat talablari tushunarliligi, chegaradagi tekshiruv shaffof va tez o'tishi kerak. Bunday tizim yo'lga qo'yilsa, hamkorlikning foydasi birinchi bo'lib eksportchi va iste'molchiga tegadi.

Oxirgi yillarda O'zbekiston — Rossiya savdosida yangi tushuncha paydo bo'ldi: marketpleyslar va raqamli xizmatlar. Avval tashqi bozorga chiqish uchun yirik distribyutor yoki ulgurji xaridor topish kerak edi. Hozir esa kichik ishlab chiqaruvchi ham mahsulotini onlayn platforma orqali Rossiyaning turli shaharlariga taklif qila oladi.

Wildberries, Ozon va boshqa platformalar O'zbekiston tadbirkorlari uchun yangi eksport eshigiga aylannoqda. Bu eshikdan tikuvchilik, uy-ro'zg'or buyumlari, hunarmandchilik mahsulotlari, oziq-ovqat va kosmetika tovarlari o'tadi. Qulay logistika va sertifikatlash to'g'ri yo'lga qo'yilsa, kichik sex ham tashqi bozorda o'z xaridorini topishi mumkin.

Biroq raqamli savdoda ham qoidalar aniq bo'lishi shart. Onlayn to'lov xavfsizligi, elektron shartnoma ikki tomon uchun teng kuchga egami, qaytarilgan tovar uchun javobgarlik kimning zimmasida, shaxsiy ma'lumotlar qanday himoya qilinadi? Bu savollarga tushunarli javob bo'lmasa, kichik tadbirkor yangi bozorga kirishdan cho'chibdi.

Shuning uchun elektron hujjatlarini o'zaro tan olish, to'lov tizimlarini uyg'unlashtirish, iste'molchi huquqini himoya qilish va soliq hisobotini soddalashtirish savdo aylanmasiga bevosita ta'sir etadi. Bu masalalar yechilsa, onlayn savdo yirik kompaniyalar emas, minglab kichik biznes subyektlari uchun ham real imkoniyatga aylanaadi.

Shu ma'noda, Prezidentimizning 4-5-iyun kunlari Rossiyaga amaliy tashrifi doirasida 29-Peterburg xalqaro iqtisodiy forumidagi nutqida "Yevrosiyoyi texnologik sanoatlashtirish kamari"ni shakllantirish tashabbusini ilgari surgani g'oyat katta ahamiyatga ega.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad sanoat kooperatsiyasining yagona raqamli platformasi bilan birlashtirilgan ishlab chiqarish va texnologik klasterlarning o'zaro bog'liq tizimini yaratishdir.

Raqobat nafaqat bozorlar va tabiiy resurslar uchun kurashda namoyon bo'lmoqda, balki texnologiyalar, logistika va infratuzilma sohalarida ham uning ta'siri sezilmoqda, — dedi davlatimiz rahbari.

Ikki mamlakat hamkorligining madaniy-gumanitar yo'nalishini mustahkamlash maqsadida "Samarqanddan Peterburggacha"

kreativ-turistik yo'lga loyihasi ishga tushirish taklifi san'at va kino festivallari, muzey ko'rgazmalari, gastronomiya haftaliklari va musiqiy tadbirlarni birgalikda tashkil etishni nazarda tutadi.

Bugun dunyo chuqur qayta qurish jarayonini boshdan kechirmoqda. Transport yo'nalishlari o'zgarimoqda, yangi ishlab chiqarish zanjirlari shakllanmoqda. Zamonaviy texnologik platformalar paydo bo'lib, barcha sohada sun'iy intellekt joriy etilmoqda. Energetika, oziq-ovqat va raqamli xavfsizlik masalalari tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda.

Ishlab chiqaruvchi uchun energiya ko'rinnas, lekin eng muhim tayanch. Elektr energiyasi yoki gaz tarmoqi uzilsa, dastgoh ishlashdan to'xtaydi, muzlatkich o'chadi, buyurtma kechikadi, ishchi daromadi xavf ostida qoladi. O'zbekiston iqtisodiyoti o'sgani sari energiyaga talab ham oshib bormoqda.

Rossiya gazi shu nuqtayi nazardan qisqa va o'rta muddatli barqarorlik omiliga aylandi. 2024-yilgi hisobotlarga ko'ra, Rossiyadan O'zbekistonga gaz yetkazib berish hajmi 5,6 milliard kub metrni tashkil etdi. Keyingi kelishuvlarda yillik yetkazib berish hajmini 7,7 milliard kub metrgacha oshirish ko'zda tutilgan. Bu qish oylarida aholi va sanoat uchun muhim yordam bo'lishi mumkin. Ammo gaz importi energetika sohasidagi muammoni hal etishdagi yagona chora emas. Uzoq muddatda O'zbekiston mahalliy ishlab chiqarish, qayta tiklanuvchi energiya, energiya tejamlor texnologiyalar va import manbalarini birgalikda diversifikatsiyalashi kerak.

Tashrif doirasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin ishtirokida mamlakatimizda integratsiyalashgan atom elektr stansiyasining birinchi energiya blokini qurishga start berilgani energetikadagi eng yirik va eng mas'uliyatli loyihalardan biridir.

Mazkur loyihaning amalga oshirilishi O'zbekistonning texnologik, industrial va ilmiy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berib, yangi tarmoq — atom energetikasini rivojlantirish uchun asos yaratadi. Stansiyani qurish va ekspluatatsiyaga tayyorlash ishlari eng zamonaviy xalqaro standartlar, ilg'or muhandislik yechimlari asosida hamda Xalqaro atom energiyasi agentligining doimiy nazoratida bajarilmoqda. Ushbu ulkan loyihaning amalga oshirilishi O'zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Loyiha to'liq quvvatga o'tgach, yiliga taxminan 17,2 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish va mamlakat iste'molining 14 foizgacha qismini qoplashi kutilmoqda. Bu O'zbekiston uchun bazaviy elektr generatsiyasini mustahkamlash imkoniyatidir.

Shu bilan birga, atom energetikasi faqat megavatt yoki milliard kilovatt-soat bilan o'chilmaydi. Jamoatchilik uchun ochiq axborot, mustaqil nazorat, xavfsizlik mahiyati, kadrlar tayyorlash, favqulodda holatlarga tayyorgarlik va ekologik monitoring

loyihaning ajralmas qismi bo'lishi kerak.

Prezidentimiz forumda yana bir muhim tashabbusni ilgari surdi. Bu kapital bozorini yanada rivojlantirish, barqaror moliyaviy va investitsiyaviy platformani shakllantirish maqsadida eng yaxshi standartlar asosida faoliyat yuritadigan Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etishdir. Markazning maxsus huquqiy maqom va soliq imtiyozlariga ega ekani investorlarga biznes yuritish uchun qulay vosita va ishonchli kafolatlarni taqdim etadi.

Savdo va energetikadan tashqari, iqtisodiy hamkorlikning yana bir muhim yo'nalishi — investitsiya. 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, O'zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi 19 ming 72 ta korxonada faoliyat yuritilmoqda. Ulardan 3260 tasi Rossiya kapitali ishtirokidagi korxonalaridir.

Bu korxonalar pul bilan birga yangi texnologiya, boshqaruv tajribasi, bozor standartlari va ish o'rinlari ham olib keladi. Mahalliy biznes uchun esa bunday sheriklik yangi mahsulot ishlab chiqarish, eksport qilish va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyati.

Investor uchun eng muhim omil — prognoz qilinishi mumkin bo'lgan qoidalar. Soliq, valyuta, litsenziya, sud va yer ajratish jarayoni qanchalik aniq bo'lsa, xavf shunchalik kamayadi. O'zbekistonda 2025-yili YAIM real hisobda 7,7 foiz o'sgani, inflyatsiyaning 2024-yil oxiridagi 9,8 foizdan 2026-yil aprelda 7 foizgacha pasaygani va xalqaro zaxiralarning 2026-yil 1-may holatiga ko'ra, 70,9 milliard dollar atrofida bo'lgani iqtisodiy barqarorlik uchun muhim ishoratdir.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi savdoni 30 milliard dollarga yetkazish maqsadiga faqat miqdor sifatida qarash to'g'ri emas. Savdo hajmi o'sishi bilan birga sifati ham o'zgarishi kerak.

O'zbekiston uchun bu — meva-sabzavotini qayta ishlangan va qadoqlangan mahsulot sifatida sotish, ip-kalavani tayyor to'qimachilik mahsulotini ko'rinishida eksport qilish, mehnat va xomashyodan ko'ra brennd, dizayn, logistika va servisdan ko'proq daromad olish degani. Rossiya uchun esa O'zbekiston bozorida o'zaro savdo mahsulot yetkazib beruvchi emas, texnologiya va qo'shma ishlab chiqarish bo'yicha uzoq muddatli sherik bo'lish imkoniyati.

Hamkorlik kengayishi bilan birga xavflar ham mavjud: to'lovlar, sanksiyaviy cheklolvar, valyuta o'zgarishi, logistikadagi uzilishlar va bozorga ortiqcha bog'lanib qolish ehtimoli. Shu sababli eksport yo'nalishlarini diversifikatsiyalash, raqobat muhitini saqlash va ichki ishlab chiqaruvchilar manfaatini himoya qilish muhim.

Iqtisodiy hamkorlikni qaramlik yoki siyosiy shior emas, manfaatlar muvozanati sifatida ko'rish kerak. Asosiy savol bitta: bu aloqa tadbirkorning ishini osonlashtiradimi, iste'molchiga tanlash imkoniyatini beradimi, ish o'rini ochadimi? Agar yo'llar, raqamli qoidalar, energiya va investitsiya muhiti shu maqsadga xizmat qilsa, 13 milliard dollarlik bugungi savdo kelajakda yanada barqaror va foydali iqtisodiy sheriklikka aylinishi shubhasiz.

EL ROZILIGI YO'LIDA



Mahallamizning ijtimoiy infratuzilmasi bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. 4 ta bolalar bog'chasi yosh avlodni maktabgacha ta'limga qamrab olishga xizmat qilsa, 1 ta maktab va 1 ta texnikum ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlamoqda. Bu holat mahallada bilimni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu mahallada bilimni yaratmoqda. Shuningdek, 1 ta xususiy klinika aholi salomatligi uchun xizmat qilyapti, 11 ta savdo, 6 ta maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchasi ham el xizmatida.

Hudduda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va parandachilik asosiy harakatlanuvchi yo'nalishga aylangan. So'nggi ikki yilda 44 fuqaro tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan aholi o'rtasida iqtisodiy faollik ortib borayotgan dalolat. Buning ortidan yangi ish o'rinlari, yangi daromad manbalari ochilgani va eng muhimi, odamlarda o'z mehnati orqali turmushini yaxshilashga ishonch kuchaygani mujassam.

Aholining qo'shimcha daromad topishiga ham alohida e'tibor qaratyapmiz. Baliqchilik



Islahotlar ostonasi


Inson doim o'zi tug'ilib o'sgan yurtini obod, odamlarini esa baxtli ko'rishni istaydi. Chunki haqiqiy baxt faqat shaxsiy farononlik bilan o'chilmaydi. Agar hayotingiz to'kis, biroq qo'shningiz og'ir ahvolda yashayotgan bo'lsa, bunday holatda to'liq xotirjamlikni his qilish imkonsiz.

Shu sababli taraqqiyot, eng avvalo, eng kichik, ammo eng muhim bo'g'inidan — mahalladan boshlanishi kerak. Chunki u davlat va jamiyat o'rtasidagi eng yaqin, eng jonli ko'prikdir. Aynan shu yerda odamning kayfiyati, turmushi va kelajakka ishonchi shakllanadi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yili Qoraqalpog'istonda tashrifi davomida "Qoraqalpog'istonda amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar bundan buyon ham albatta davom ettiriladi. Chunki Qoraqalpog'istonning taqdiri — bu O'zbekistonning taqdiri, qoraqalpog' xalqining baxti va farononligi — bu butun o'zbek xalqining baxti va farononligidir" degan so'zlari hayotda amaliy tasdiq'ini topib bormoqda.

Bugun mahalla institutiga e'tibor yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Mahalla tizimi shunchaki hududiy boshqaruv emas, balki xalqning dardini tinglaydigan, muammolarni aniqlaydigan va yechimini eng quyi bo'g'inda hal qiladigan amaliy mexanizm sifatida shakllanaypti. Bu tizim orqali davlat siyosati odamlar hayotiga yanada yaqinlashib, har bir oilaning holati o'rganilib, amaliy yordam ko'rsatish imkoniyati kengaymoqda.

Nukus shahridagi Nao'bahar mahallasi ham ana shunday islohotlar samarasi sezilayotgan hududlardir. Mahallamizda 1652 ta oila yashaydi. Ko'p millatli aholi bir hudduda ahil-inoq yashab kelayotgani ijtimoiy barqarorlikni yanada mustahkamlamoqda.



Dolzarb mavzu

QUYOSH, SHAMOL, SUV

Boshlanishi 1-betda

"Yashil" energetikaning ekologik xavfsizlikni ta'minlashdan tashqari, tejamkorlik, iqtisodiy barqarorlikni oshirishdagi ulushi ham yuqori. Bu turdagi elektr energiyasini uzluksiz ishlab chiqarish imkoniyati iqtisodiyot tarmoqlarining doimiy ishlashi, rivojlanib borishini kuchaytiradi. Chunki tabiiy manbalar zaxirasi qachonlardir tugashi yoki davlatlarning iqtisodiy barqarorligi ana shu zaxiralarga hajmiga bog'liq bo'lib qolishi mumkin. Muqobil energiya manbalari esa bu boradagi cheklavlarni bartaraf etadi. Faqat undan to'g'ri va samarali foydalanilsa, bo'lgani. Shu bois, yurtimizda "yashil" energetika iqtisodiy barqarorlik va ekologik tozalikni ta'minlashda ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi.

Bu ta'rif bir oz oddiy bo'ldi, nazarimda. Chunki O'zbekiston keyingi yillarda "yashil iqtisodiyot"ga jadal o'tib boryapti. Qisqa muddatda mamlakatimiz quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish bo'yicha yetakchi davlatlar qatoriga qo'shilish barobarida o'z tajribasini yaratishga erishdi. Bugun yurtimizda quyosh va shamol elektr stansiyalari quvvati 5,5 gigavatt dan oshib, toza energiyaning umumiy energetika balansidagi ulushi 30 foizdan ortdi.

2030-yilga borib, O'zbekistonda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining 54 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasiga to'g'ri kelishi rejalashtirilgan. Bu maqsadga yangi quvvatlarni ishga tushirish, gaz hamda boshqa zararli yoqilg'i turlaridan foydalanmagan holda "yashil" energetika ishlab chiqarish hajmini oshirish hisobiga erishiladi. Energetika vazirligi ma'lumotiga ko'ra, o'tgan yili yurtimizda 2016-yildagiga nisbatan 46 foiz ko'p elektr energiyasi ishlab chiqarilib, iste'molchilarga 71 milliard kilovatt-soat elektr toki yetkazib berilgan.

Joriy yilning 13-may kuni esa yurtimizdagi quyosh va shamol elektr stansiyalarida sutkalik ishlab chiqarish bo'yicha yangi rekord o'rnatildi. Bir sutkada 62,4 million kilovatt-soat "yashil" energiya ishlab chiqarilib, avvalgi rekorddan 20 foiz ziyod natija qayd etildi. Shu yil 14-may kuni bu borada yana bir yuqori ko'rsatkich e'lon qilindi — O'zbekistondagi quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan 2026-yil boshidan beri ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi 4 milliard kilovatt-soatga yetdi. Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 29 foiz ko'p bo'lib, ushbu quvvat hisobiga 1 milliard 66 million kub metr tabiiy gaz tejashiga erishilgan hamda atmosfera 2,3 million tonna zararli modda chiqishining oldi olingan.

O'nlab quyosh va shamol elektr stansiyalari

Ushbu raqamlar ortida o'nlab yangi elektr stansiyalari va quvvatlarining yaratilishi, eng ilg'or texnologiyalar, ishonchli ta'minot va mustahkam infratuzilma, investitsiyalar uchun ochiqlik, investorlar ishonchi, minglab yangi ish o'rinalari va albatta, iqtisodiyot hamda aholi farovonligi turibdi. Bundan to'g'ri yil oldin "yashil" energetika borasida deyarli tajribasi bo'lmagan O'zbekiston uchun bu katta natija, inqilobiy o'zgarish, deyaish mumkin.

Mamlakatimizda quyosh yoki shamoldan elektr energiyasi olish u yoqda tursin, buning uchun zarur stansiyalar qurishning o'zi aqilovor qilmay ishdake edi. "Yashil" energetikaga o'tish yo'lidagi islohotlar 2019-yildan keyingina boshlandi. Bu yurtimizda quyosh va shamol energiyasi salohiyatidan elektrga ehtiyojni qondirishda foydalanishga qaratilgan aniq maqsadning boshlanishi edi. Ungacha faqat quyoshli o'lkada yashashimiz, bu dehqonchilikda qo'l kelishi haqida to'g'ri qinlanib gapirardik. Bugun esa dunyo hamjamiyati O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish imkoniyatlari va harakatlari haqida gapiryapti, yirik loyihalarni katta qiziqish bilan kuzatyapti.



O'zbekiston "yashil" energetika inqilobini amalga oshirmoqda



Deyarli barcha viloyatda zamonaviy quyosh va shamol elektr stansiyalari barpo etilmoqda. Agar yillar kesimida olsak, loyihalar soni ham, ko'lami ham ortib borayotgani ko'rinadi. Xususan, 2021-yil avgustda Navoiy viloyatining Karmana tumanida O'zbekistondagi ilk 100 megavatt quvvatli yirik quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. 2022-yil mayda Samarqand viloyati Nurobod tumanida ikkinchi 100 megavatt quvvatli quyosh fotoelektr stansiyasi faoliyat boshladi. 2023-yil ham tarmoqda ancha barakali bo'ldi. Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida 220 megavatt, Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanida 200 megavatt, Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanida 200 megavatt, Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida 457 megavatt quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalari ishga tushirildi. 2024-yilda mazkur loyihalarning qo'shimcha yangi quvvatlari ham yo'lga qo'yildi.

Umuman, o'tgan yillarda 40 dan ortiq "yashil" elektr stansiyasini qurish bo'yicha investorlar bilan bitim imzolangan bo'lib, bugunga qadar umumiy 5582 megavatt quvvat ishga tushirildi. Bu loyihalar jahon "yashil" energetika maydonining gigantlari bilan amalga oshirilayotgani yanada ahamiyatli. Saudiya Arabistonining "ACWA", BAAning "Masdar", "Tepelen Group AG" va "AMEA Power", Fransiyaning "Total Eren", "Voltalia", Xitoyning "Gezhouba Overseas Investment Group", "China Datang Overseas Investment" hamda "Universal Energy", Germaniyaning "Hyper Partners" kompaniyalari tomonidan boshlangan yirik loyihalarga bugunga qadar faol davom ettirilmoqda.

Hamkorlar — dunyo energetika sohasining gigantlari

Har yili xalqaro "Energetika haftaligi" doirasida ana shunday yirik, nufuzli kompaniyalar vakillarining yurtimizga kelishi, yangi loyihalarga start berilishi ham an'anaga aylandi.

Joriy yilgi haftalik doirasida bunga yana bir karra guvoh bo'ldik. Poytaxtimizdagi CAEX ko'rgazmalar maydonida 12-14-may kunlari bo'lib o'tgan navbatdagi "O'zbekiston energetika haftaligi — 2026" tadbirlarida 34 davlatdan kelgan 1800 dan ortiq delegat, 18 mingdan ziyod mahalliy va xorijiy vakil ishtirok etdi. Tadbirlar kun tartibidagi masalalardan biri "yashil" energetikani rivojlantirishga qaratilgan

bo'lib, xorijlik mehmonlar O'zbekistonda bu boradagi islohotlarni yuqori baholadi.

Odatda haftalik tadbirlari shunchaki o'tmaydi, yangi kelishuvlar, bitimlarga asos bo'ladi. Bu gal ko'lam yanada kengaydi. Energetika haftaligining ilk kunlaridan qator loyihalarga start berilib, yangi quvvatlar ishga tushirildi. Xususan, O'zbekiston Energetika vazirligi va BAAning mashhur "AMEA Power" kompaniyasi hamkorligida Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanida qiymati 86,1 million dollar bo'lgan 150 megavatt quvvatli energiya saqlash tizimi qurilishi boshlandi.

— Mazkur kompaniya boshqa loyihalarni ham moliylashtirmoqda, — dedi Energetika vazirligi



loyiha ofisi rahbari Fazliddin Sharofiddinov. — Xususan, Qoraqalpog'istonning Qo'ng'iro't tumanida qiymati 1,06 milliard dollar bo'lgan 1000 megavatt quvvatli shamol elektr stansiyasi hamda 40 kilometr uzunlikdagi elektr uzatish tarmog'ini qurish loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyihalarning har biri katta ko'limga ega. Asosiy, ular yurtimiz energetika infratuzilmasini yanada mustahkamlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish hamda energiya ta'minoti barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fransiyaning "Voltalia" kompaniyasi bilan hamkorlikdagi qo'shma loyihalar ham ancha jadallashmoqda. Yangida ular orasiga yangilari qo'shiladi. Energetika haftaligi doirasida kompaniya vakillari bilan rejadagi loyihalar muhokama qilindi. Ular orasida Buxoro viloyatida quvvati 100 megavatt bo'lgan shamol

SUV

elektr stansiyasi, 100 hamda 200 megavatt-soat energiya saqlash tizimini qurish, joriy yil iyulda Toshkent viloyatida quvvati 500 kilovatt bo'lgan agrovoltaika quyosh elektr stansiyasini ishga tushirish loyihalari bor.

Yangi tariflar: kim qancha to'laydi?

"Yashil" energetikaning yana bir afzalligi iste'mol xarajatlarini kamaytirishida. Masalan, xonadoniga quyosh paneli o'rnatgan oilaning elektr toki uchun to'lovi elektr energiyasini umumiy tarmoqdan oladigan oilanikiga nisbatan ancha arzon tushadi. Ehtiyojdan ortgan elektr tokini davlatga sotish ham mumkin.

Mazkur amaliyot O'zbekiston tarixida ilk bor 2021-yildan boshlandi. Hozir aholi xonadonida o'rnatilgan quyosh panellari orqali ishlab chiqarilgan elektr energiyasining har kilovatini davlat 1000 so'mdan sotib oladi. Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yili quyosh panellari o'rnatgan 45 ming 381 jismoniy shaxs davlatga 209 milliard 201 million so'mlik elektr energiyasi sotgan.

Bu xonadonlar uchun qo'shimcha daromad manbai hamdir. Ammo masalaning asosiy jihati elektr energiyasi uchun to'lov xarajati kamayishida. Kam ta'minlangan xonadonlarga davlat tomonidan imtiyozli shartlarda quyosh panellari o'rnatib berilayotgani boisi shunda.

Energetika sohasida bozor iqtisodiyotiga o'tilganiga ko'p bo'ladi. Ammo allaqachon elektr toki narxi bevosita ishlab chiqarish xarajati, talab va taklif, jahon bozorida narx-navoga qarab belgilanishi, iste'molga yarasha to'lov shartlariga moslashtirildi.

Shu yil 1-iyundan yurtimizda joriy etilayotgan elektr energiyasi va tabiiy gazning yangi tariflarida ham ayni jihatlarni nazarda tutilmoqda. Hukumatning tegishli qarori bilan I, II va IV guruh iste'molchilari uchun elektr energiyasining 1 kilovatt-soati 1100 so'm etib belgilandi. III guruh, jumladan, aholi uchun esa tabaqalashtirilgan tariflar saqlab qolindi.

Endi ovqat tayyorlash uchun markazlashgan holda elektr plitalar bilan yitqozlangan ko'p kvartirali uylar va yotoqxonalarda yashovchi aholi oyiga 200 kilovatt-soatga 325 so'm, 201 kilovatt-soatdan 500 kilovatt-soatga 450 so'm, 501 kilovatt-soatdan 1000 kilovatt-soatga 550 so'm to'laydi. Qolgan maishiy iste'molchilar uchun esa tariflar boshqacharoq — oyiga 200 kilovatt-soatga 650 so'm, 201 kilovatt-soatdan 500 kilovatt-soatga 900 so'm, 501 kilovatt-soatdan 1000 kilovatt-soatga 1100 so'm bo'ladi.

Iste'mol ortgani sari to'lov miqdori ham oshib boradi. Jahon amaliyotida ham shunday. Gap faqat to'lov mexanizmidan emas, dunyo bo'yicha elektr energiyasi narxi ham sezilarli oshib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi o'n yillikda jahon energetika tizimi eng og'ir davrlardan birini boshdan kechirmoqda. Ayniqsa, jahon energetikasidagi vaziyat 2021-2022-yillardagi energetika inqirozidan so'ng keskin yomonlashgan. Yevropada gaz narxi tarixiy eng yuqori ko'rsatkichlarga yetdi. Ayrim mamlakatlarda esa elektr energiyasi qiymati bir necha barobar oshgan. Bu O'zbekistondan uzoqdagi davlatlarning ichki muammosi emas, balki butun dunyoni bog'lab turgan global janjirdir. Mazkur jarayon oxir-qibat har bir o'zbek xonadonidagi elektr va gaz xarajatarida ham sezilmay qolmaydi.

Murakkab vaziyatga qaramay, yurtimizda ayni masalada kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmi yo'lga qo'yilgan. Xususan, Prezidentimizning tegishli qarorlariga asosan ehtiyojmand oilalarga yil davomida ishlatilgan elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun davlat tomonidan har oyda kompensatsiya beriladi. Bu ham ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalarga qo'shimcha yordam bo'lmoqda.

Elektr energiyasi narxi ortib borayotgan sharoitda odamlarning o'zi ham muqobil energiya manbalariga o'tish ancha samarali ekanini anglamoqda. Hozir ko'plab korxonada, davlat tashkilotlari, aholi xonadonlari tomonida quyosh panellariga ko'zimiz tushadi. Yaqin yillarda ularning soni yanada ortishi shubhasiz.

Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Xalqaro hamkorlik

INSON HUQUQLARI — CHEGARA BILMAS QADRIYAT

Varshavadagi uchrashuv va muloqotlar

Boshlanishi 1-betda

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi hamkorligida o'tkazilgan mazkur tadbirda inson huquqlarini ta'minlashda davlat institutlari, parlament tuzilmalari, inson huquqlari milliy institutlari, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy "Odami ersang, demagil odami, onikim yo'q xalq g'amidin g'ami", degan edi. Bu hikmat bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Inson huquqlari sohasidagi har qanday islohot markazida xalq tashvishi, inson dardi va jamiyat oldidagi mas'uliyat turishi kerak.

Varshavadagi muloqotlarda ham aynan shu g'oya — insonni ehitish, huquqini himoya qilish va davlat institutlarini odamlarga yaqinlashtirish masalasi yetakchi o'rin tutdi.

Davra subhatida so'z erkinligi masalasi ham alohida muhokama qilindi. Bugungi axborot asrida so'z erkinligi jamiyatning ochiqligi, davlat organlarining hisobdorligi va fuqarolarning axborot olish huquqi bilan bevosita bog'liq demokratik mezonidir. Shu bilan birga, erkinlik mas'uliyat bilan uyg'un bo'lgandagina jamiyat manfaatiga xizmat qiladi. Axborotning xolisligi, tekshirilgani, ikkinchi tomon pozitsiyasini ehitish madaniyati va inson sha'nini hurmat qilish zamonaviy media muhitining ajralmas talabidir.

Gender tenglik va xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish masalasi ham tadbirming muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ta'lim, mehnat, tadbirkorlik va davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, oilaviy zo'ravorlikka qarshi huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish borasidagi ishlar xalqaro ekspertlar va hamkorlar e'tiboriga taqdim etildi.

Varshavadagi muloqotlarda yana bir muhim jihat yaqqol namoyon bo'ldi: O'zbekistondagi islohotlar xalqaro ekspertlar, tadqiqotchilar va tahlil markazlari tomonidan kuzatib borilmoqda. Bu esa mamlakatimizda inson huquqlari, gender tenglik va ijtimoiy adolat sohasidagi o'zgarishlar mintaqaviy doiradan chiqib, xalqaro ilmiy-tahliliy muhitda ham e'tibor markazida ekanini ko'rsatadi.

Bu yo'nalishdagi muloqotlar gender tenglik faqat ayollar masalasi emas, balki jamiyatning adolati, barqaror va farovon rivojlanishi bilan bog'liq umumimilliy masala ekanini ko'rsatdi. Varshavadagi muloqotlarda yana bir muhim jihat yaqqol namoyon bo'ldi: O'zbekistondagi islohotlar xalqaro ekspertlar, tadqiqotchilar va tahlil markazlari tomonidan kuzatib borilmoqda. Bu esa mamlakatimizda inson huquqlari, gender tenglik va ijtimoiy adolat sohasidagi o'zgarishlar mintaqaviy doiradan chiqib, xalqaro ilmiy-tahliliy muhitda ham e'tibor markazida ekanini ko'rsatadi.

Jumladan, Sharq tadqiqotlari markazining Markaziy Osiyo bo'yicha tahlilchisi Darya Zelinska O'zbekistonda, ayniqsa, 2016-yildan buyon inson huquqlari va gender tenglik masalalarida sezilarli yutuqlarga erishilganini ta'kidladi. Uning fikricha, oilaviy zo'ravorlikka qarshi kurashish, gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, oilaviy hayotdagi mustaqilligi va ijtimoiy rolini kuchaytirish borasida muhim qadamlar tashlangan.

Tashqi ishlar bo'yicha "Opportunity" tahlil markazi tahlilchisi Marchin Poplavski O'zbekistondagi islohotlar mamlakatni liberalashtirishga xizmat qilgani, fuqarolarning ijtimoiy huquqlardan kengroq foydalanishi uchun imkoniyat yaratganini ta'kidladi. U, shuningdek, 2023-yildagi konstitutsiyaviy islohotlar davlatning insonga munosabati va yondashuvini yangi bosqichga olib chiqqani, O'zbekistonning o'zini ijtimoiy davlat sifatida e'tirof etishi fuqarolar oldidagi majburiyatlarini yanada aniq belgilashga xizmat qilganini qayd etdi.

Varshava universiteti siyosiy fanlar va xalqaro tadqiqotlar fakulteti xodimi Lida Masalska esa O'zbekistonda ombudsman institutining faoliyati inson huquqlari sohasini takomillashtirish, huquqiy tizimni rivojlantirish hamda inson manfaatlari va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan e'tiborni kuchaytirishda muhim o'rin tutayotganini qayd etdi. Bu fikr, o'z navbatida, ombudsman institutining nafaqat milliy huquqiy



Feruza ESHMATOVA, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)

tizimda, balki xalqaro ekspertlar nigohida ham inson huquqlarini himoya qilishning muhim mexanizmi sifatida baholalanayotganini anglatadi.

Bu jihatlarni Varshavadagi tadbirming yana bir muhim natijasini ko'rsatadi: O'zbekistondagi islohotlar haqida faqat mamlakat ichida emas, balki xorijiy ilmiy-tahliliy doiralarda ham ijobiy fikrlar bildirilmoqda. Demak, inson huquqlari sohasidagi o'zgarishlar xalqaro muloqotning ham muhim mavzusiga aylanmoqda.

Safar doirasida qator ikki tomonlama uchrashuvlar ham o'tkazildi. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, Polsha ombudsmani, Polsha parlamenti, Polsha konstitutsiyaviy tribunali va boshqa tuzilmalar vakillari bilan muloqotlarda

inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar o'rtasida tajriba almashish, parlament nazorati, fuqarolar murojaatlari bilan ishlash, qonunchilikni takomillashtirish va inson huquqlarini himoya qilishning amaliy mexanizmlarini kuchaytirish masalalari muhokama etildi.

Inson huquqlarini ta'minlashda har bir mamlakatning o'z tajribasi, huquqiy tizimi va ijtimoiy voqeeligi bor. Ammo barcha davlat uchun umumiy bir mezon mavjud: inson sha'nini himoya qilish. Varshavadagi uchrashuvlar ana shu umumiy mezon atrofida qilindi, amaliy va o'zaro hurmatga asoslangan muloqot shakllanganini ko'rsatdi.

Xizmat safarining yana bir muhim jihati Polshadagi ayrim muassasalarga uyushtirilgan tashriflar va yerdan saqlanayotgan O'zbekiston fuqarolari bilan o'tkazilgan subhatlar bo'ldi. Chunki xorijda bo'lsa ham o'z fuqarosining holidan xabar olish, uning sharoitini o'rganish, murojaatini ehitish va huquqiy himoyasi masalasi e'tiborga olish muhim masala.

Varshavadagi muloqotlar rasmiy uchrashuvlar bilan bog'liq bo'lmagan. Safar doirasida Polshada vaqtincha ishlayotgan O'zbekiston fuqarolari bilan uchrashib, ularning yashash va mehnat sharoiti, huquqiy masalalari hamda murojaatlari tinglandi. Bu holat inson huquqlarini himoya qilish mas'uliyati davlat chegarasi bilan cheklanmasligini yana bir bor namoyon etdi.

O'zbekistondagi Varshavadagi tashabbusi mamlakatimizda inson huquqlari, so'z erkinligi va gender tenglik sohasidagi islohotlarni xalqaro maydonda taqdim etish bilan birga yangi hamkorlik yo'nalishlarini belgilash, ilg'or tajribalarni o'rganish va milliy mexanizmlarni yanada takomillashtirish uchun imkoniyat yaratadi.

Inson huquqlari — chegara bilmas qadriyat. U qayerda himoya qilinsa, o'sha yerda ishonch mustahkamlanadi. U qayerda qadr topsa, o'sha yerda adolatga yo'l ochiladi. Varshavadagi muloqotlar esa ana shu qadriyatni yanada mustahkamlash yo'lidagi salmoqli qadamlardan biri bo'ldi.



Sanoat iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan. U yalpi ichki mahsulot o'sishini ta'minlash, mehnat unumdorligini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish hamda eksportni diversifikatsiya qilishda birlamchi o'rin tutadi. Jahon iqtisodiyotida ham sanoat sohasi iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim tarmoqlardan. Hozir sanoat global yalpi ichki mahsulotning taxminan 26 foizini tashkil etadi. Uning tarkibida qayta ishlangan mahsulotlar ahamiyatga ega. U jahon YIMning 16-17 foizini ta'minlaydi hamda sanoat qo'shilgan qiymatining qariyb 80 foizini shakllantiradi.



Iskandar O'ROQBOYEV, Barqaror rivojlanish markazi bo'lim boshlig'i

Shuningdek, jahon iqtisodiyotida ish bilan band aholi soni taxminan 3,5 milliardni tashkil etib, ularning qariyb 24 foizi sanoat tarmoqlarida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, global miqyosda asosiy kapitalga kiritilayotgan xorijiy investitsiya va kreditlarning asosiy qismi sanoat tarmoqlariga yo'naltirilmoqda. Shu bilan birga, global iqtisodiyotda ish o'rnlari ochish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti tomonidan tayyorlangan 2026-yilgi Sanoat rivojlanishi hisobotiga ko'ra, sanoat sohasi texnologik taraqqiyot va barqaror rivojlanishni ta'minlashda asosiy drayverlardan. Xususan, xalqaro tashkilotlar hisobotida ta'kidlanishicha, kelgusi o'n yilliklarda global iqtisodiy rivojlanish raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalari, "yashil" energetika, yarimo'tkazgichlar ishlab chiqarish va elektr transport vositalari kabi yangi texnologik yo'nalishlar ta'sirida shakllanadi. Shu bilan birga, sanoatlashuv ish o'rnlari ochish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va qiymat zanjirlarini kengaytirish orqali iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, jahon tajribasi barqaror iqtisodiy o'sishga erishgan mamlakatlar sanoatni modernizatsiya qilish va texnologik rivojlanishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaganini ko'rsatadi. O'zbekistonda ham 2017-yildan boshlab iqtisodiyotni liberalashtirish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirildi. Bu jarayon Harakatlar strategiyasi doirasida boshlanib, keyinchalik Taraqqiyot strategiyasi orqali izchil davom ettirildi. Ushbu islohotlarning mantiqiy davomi



Sanoat tarmoqlarida yalpi qo'shilgan qiymat hajmi ham sezilarli darajada kengaydi. Xususan, mazkur ko'rsatkich 2017-yilda 73,3 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib, 472,7 trillion so'mga yetdi. Inflyatsiya ta'sirini hisobga olganda, o'sish sur'ati taxminan 2,8 barobarni tashkil etdi.



YUQORI QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRIGA TAYANGAN SANOAT

yoxud iqtisodiy o'sish drayveri tahlili

sifatida "O'zbekiston — 2030" strategiyasi sanoat sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasining BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) bilan uyg'unligi mamlakatning global maydondagi pozitsiyasini mustahkamlab, sanoat sohasidagi islohotlarni jadallashtirdi. Strategiyaning 48-maqsadi doirasida sanoatda qo'shilgan qiymatni hozirgi 36,5 milliard dollardan 60 milliard dollarga yetkazish, tog'-kon sanoatida mahalliyashtirish, sanoat kooperatsiyasi hamda shatakka olish tizimi doirasida mahalliyashtirilgan mahsulotlar hajmini hozirgi 1,5 milliard dollardan 2 milliard dollargacha yetkazish, to'qimachilikda kalava ipni qayta ishlash darajasini hozirgi 65,9 foizdan 100 foizga yetkazish bo'yicha vazifalar belgilangan.

Natijada qayta ishlangan mahsulotlarni kengaytirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish va "yashil" industrial rivojlanishni ta'minlash ustuvor vazifalarga aylandi. Shu jihatdan 2017-2025-yillarni O'zbekiston sanoatida tarkibiy transformatsiya bosqichi sifatida baholash mumkin.

Makroiqtisodiy holat va investitsiya

Keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qildi. Ushbu davrda yalpi ichki mahsulot (YIM)ning o'tacha yillik o'sish sur'ati taxminan 6 foizni tashkil etdi. Jumladan, iqtisodiy o'sish 2017-yilda 4,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 6,1 foizga ko'tarildi hamda 2025-yilda 7,7 foiz darajasida qayd etildi. Natijada 2025-yilga kelib, mamlakat YIM hajmi tarixda ilk bor 147 milliard dollardan oshdi. Mazkur o'sishda sanoat tarmoqlarining hisssasi sezilarli bo'ldi. Jumladan, 2025-yilda sanoat ishlab chiqarishi 6,8 foiz o'sdi.

Sanoat tarmoqlarida yalpi qo'shilgan qiymat hajmi ham sezilarli darajada kengaydi. Xususan, mazkur ko'rsatkich 2017-yilda 73,3 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib, 472,7 trillion so'mga yetdi. Inflyatsiya ta'sirini hisobga olganda, o'sish sur'ati taxminan 2,8 barobarni tashkil etdi.

Shu bilan birga, YIM tarkibida sanoatning ulushi ham o'sish tendensiyasini namoyon qildi. Jumladan, 2017-yilda sanoat yalpi qo'shilgan qiymatining YIMdagi ulushi 22 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib, 26,8 foizga yetdi. Bu holat sanoat tarmoqlarining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati ortayotgani va iqtisodiy o'sishda sanoatning drayver sifatidagi roli kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

2017-2025-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan umumiy xorijiy investitsiya hajmi taxminan 130 milliard dollarni tashkil etdi. Ushbu davrda asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlarning o'tacha hisobda qariyb 70 foizi sanoat tarmoqlariga yo'naltirildi. Bunda tog'-kon, ishlab chiqarish sanoati, elektr energiyasi, gaz va bug' bilan ta'minlash,



Eksport va diversifikatsiya

Umuman olganda, 2025-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 591,1 trillion so'mni tashkil etib, shundan 24,75 milliard dollari sanoat tarmoqlariga yo'naltirildi. Natijada ushbu tarmoqqa yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi 2017-yildagi 45 foizdan 2025-yilda 53 foizgacha oshdi.

Yirik investitsiya loyihalari asosan metallurgiya, misni qayta ishlash, neft-gaz kimyosi, qurilish materiallari hamda avtomobilsozlik sohaslarida amalga oshirildi. Investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va mahalliyashtirish darajasini oshirishga xizmat qildi.

Qayta ishlash va tarkibiy transformatsiya

Ushbu sarmoyalar asosida qayta ishlangan mahsulotlar sezilarli o'sish kuzatildi.

2017-2025-yillarda O'zbekiston sanoati tarkibida qayta ishlangan mahsulotlarni yetakchi o'rinni egallab, iqtisodiy o'sishning asosiy drayveriga aylandi. Bu davrda sanoat tarkibi diversifikatsiyalanib, qurilish materiallari, mashinasozlik va avtosanoat kabi tarmoqlarda yuqori o'sish sur'ati kuzatildi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2017-yilda 148,8 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib, 1101,1 trillion so'mga yetdi. Inflyatsiyani hisobga olganda real o'sish taxminan 3,2 barobarni tashkil etdi.

Qayta ishlangan mahsulotlarning ulushi 2017-yildagi 78,1 foizdan 2025-yilga kelib, 86 foizgacha oshdi. Nominal hajm esa 112,7 trillion so'mdan 947,2 trillion so'mgacha ko'paydi. Ayniqsa, qurilish materiallari va mashinasozlik tarmoqlarida sezilarli o'sish kuzatildi. Xususan, sement ishlab chiqarish 2017-yildagi 8,5 million tonnadan 2025-yilda 20,2 million tonnagacha oshdi, yengil avtomobillar ishlab chiqarish esa qariyb 135,5 ming donadan 403,5 mingdan ortiqqa yetdi.

Shu bilan birga, sanoat tarkibida tog'-kon sanoati ulushi 2017-yildagi 12,7 foizdan 2025-yilga kelib, 7 foizga tushdi. Elektr, gaz va bug' bilan ta'minlash hamda suv ta'minoti tarmoqlarining ulushi ham bir oz qisqargan bo'lsa-da, ularning nominal ishlab chiqarish hajmi sezilarli oshdi. Umuman olganda, bu davrda sanoat tarkibidagi o'zgarishlar iqtisodiyotda diversifikatsiya jarayonlari kuchayib, yuqori qo'shilgan qiymatga asoslangan industrial rivojlanish modeli shakllanayotganini ko'rsatadi.

shakllantirishga qaratilgan "yashil" industrial transformatsiya jarayonlari faollashmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi 2017-yildagi 12,7 foizdan 2025-yilga kelib, 31 foizga yetdi. Bu esa energetika tizimini diversifikatsiya qilish va sanoatda energiya ta'minoti barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Strategik rejalarga ko'ra, 2030-yilgacha mazkur ko'rsatkichni 54 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Shu bilan birga, iqtisodiyotga energiya tejankor va ilg'or texnologiyalarni joriy etish natijasida resurslardan samarali foydalanish darajasi oshib bormoqda. Xususan, 2025-yilda 1 dollarlik qo'shilgan qiymat yaratish uchun sarflanadigan energiya xarajati 15 foiz kamaydi. Bu tendensiya sanoat tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishga xizmat qilmoqda.

Kelgusida "yashil" sanoat rivojlanishini yanada chuqurlashtirish maqsadida 2030-yilga qadar qator strategik vazifalar belgilangan. Jumladan, sanoatda mehnat unumdorligini hozirgi 16,5 ming dollardan 30 ming dollargacha oshirish, ming dollarlik qo'shilgan qiymat yaratish uchun sarflanadigan energiya



miqdorini 1,5 barobar kamaytirish hamda yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan issiqxonaga gazlari chiqindisini 2010-yildagiga nisbatan 35 foiz qisqartirish rejalashtirilgan. Bu choralar sanoatning ekologik barqarorligini ta'minlash va uzoq muddatli "yashil" iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Zarurat va xulosalar

O'zbekiston sanoatida so'nggi yillarda sezilarli o'sish va tarkibiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, sohaning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlash bilan bog'liq ayrim dolzarb masalalar saqlanib qolmoqda. Xususan, BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (United Nations Industrial Development Organization) tomonidan tayyorlangan 2026-yilgi Sanoat rivojlanishi hisobotiga ko'ra, jahon sanoatida texnologik transformatsiya, raqamlashtirish va global qiymat zanjirlarining qayta shakllanishi jarayoni jadallashtirish bormoqda va bu mamlakatlar sanoat siyosatiga yangi talablar qo'yimoqda.

Birinchidan, sanoat tarmoqlarida texnologik darajani yanada oshirish zarurati mavjud. Qayta ishlangan mahsulotlar hozircha asosan past va o'rta texnologiyali tarmoqlar ustunlik qilayotgani yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini bosqichma-bosqich kengaytirishni talab etmoqda. Yuqori texnologiyali tarmoqlar sanoatning eng yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi segmentlari va ular global qiymat zanjirlarida raqobatbardoshlikni belgilaydi.

Ikkinchidan, sanoatda mehnat unumdorligini yanada oshirish zarur. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat tarmoqlarida texnologik modernizatsiya va raqamlashtirish jarayonlari mehnat unumdorligini oshirishning asosiy omillaridan. Shu bois, ishlab chiqarish jarayoniga raqamli texnologiyalar, avtomatizatsiya hamda

innovatsion boshqaruv usullarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, eksport tarkibini yanada diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish vazifasi ham muhim. Qayta ishlangan sanoat mahsulotlari eksporti iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda zarur omildir.

Yuqorida qayd etilgan masalalarni hal etish maqsadida sanoat siyosatini yanada takomillashtirish va qator strategik yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Avvalo, yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan sanoat siyosatini izchil takomillashtirish sanoatning texnologik salohiyatini bosqichma-bosqich oshirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlash imkonini beradi. Xususan, elektronika, kimyo sanoati, farmatsevtika, mashinasozlik hamda raqamli texnologiyalar sohaslarida innovatsion ishlab chiqarishni rag'batlantirish sanoatning texnologik salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlari kengaytirish mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini bosqichma-bosqich yaxshilash imkoniyatini beradi. "Industriya 4.0" elementlari — avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish, raqamli boshqaruv tizimlari va ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish imkonini beradi.

Uchinchidan, sanoat klasterlarini rivojlantirish va mahalliyashtirish darajasini chuqurlashtirish muhim yo'nalishlardan. Bu ishlab chiqarish zanjirlarini mustahkamlaydi, kichik va o'rta biznes subyektlarining sanoat kooperatsiyasidagi ishtirokini kengaytiradi.

To'rtinchidan, eksportni ko'llab-quvvatlash siyosati izchil davom ettirilib, qayta ishlangan va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksportini kengaytirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Yangi tashqi bozorlarni o'zlashtirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish hamda savdo tartib-taomillarini



soddalashtirish bu jarayonni yanada faollashtirishi mumkin.

Beshinchidan, "yashil sanoat" tamoyillarini keng joriy etish sanoatning ekologik barqarorligini ta'minlash va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda strategik ahamiyatga ega. Energiya tejankor texnologiyalarni tatbiq etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan foydalanishni kengaytirish hamda ekologik standartlarga rioya etish sanoat tarmoqlarining ekologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oxirgi yillarda O'zbekiston sanoati rivojlanishida muhim tarkibiy o'zgarishlar va sifat jihatidan yangi bosqich bilan tavassiflanadi. Bu davrda iqtisodiyotni liberalashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va xususiy sektor faolligini rag'batlantirishga qaratilgan islohotlar sanoat o'sishi uchun mustahkam asos yaratdi.

Natijada sanoat ishlab chiqarish hajmi bir necha barobar oshdi, qayta ishlangan mahsulotning ulushi sezilarli darajada kengaydi va iqtisodiyotda diversifikatsiya jarayoni faollashdi. Sanoat tarkibida xomashyo sektorining nisbiy ulushi qisqarib, yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga yo'naltirilgan ishlab chiqarish zanjirlari shakllana boshladi. Shu bilan birga, investitsiya oqimi va infratuzilmaning rivojlanishi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga xizmat qildi.

Sanoatni yanada modernizatsiya qilish, texnologik darajani oshirish, innovatsiyalarni keng joriy etish va "yashil" industrial rivojlanishga o'tish kelgusi yillardagi asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Agar ushbu yo'nalishlardagi islohotlar "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan kabi izchil davom ettirilsa, sanoat iqtisodiyotimizning yetakchi drayveri sifatida yanada mustahkamlanishi, mamlakatimizning global iqtisodiy tizimdagi raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshishi shubhasiz.



Kamolot pillapoyasi

muhim vazifalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, taqdimotda bildirilgan taklif va tashabbuslar oddiy bandlik choralarini emas, balki ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuv sifatida ahamiyatlidir.

"Kelajakka qadam" dasturi doirasida 2025-yilda 6 mingdan ziyod loyiha uchun 378 milliard so'm ajratilgan va qariyb 8 ming bitiruvchining bandligi ta'minlangani yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi. Endi mazkur dasturni yanada kengaytirish, 2026-yilda 8 mingdan ortiq loyihani moliyalashtirish va 10 mingga yaqin yoshning bandligini ta'minlash rejalashtirilayotgani davlat

qiladi. Oliyoghlarda startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash, spin-off korxonalar tashkil etish, talabalarni ushbu jarayonlarga jalb qilish ham zamonaviy universitet modeliga xos muhim jihatlardan biri. Dunyo tajribasida universitetlar ta'limdan tashqari innovatsiya va texnologiyalar markazi sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimizda ana shunday yondashuvni keng joriy etish ilmiy g'oyalarni iqtisodiy natijaga aylantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Taqdimotda ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish bo'yicha bildirilgan takliflar alohida ahamiyat kasb etadi. Tarmoq korxonalarida kafedra filiallarini ochish, bitiruv malakaviy ishlarini ish beruvchi

BITIRUVCHI BANDLIGI VA RAQOBATBARDOSH KADRLAR KAPITALI

So'nggi yillarda yangi O'zbekistonda oliy ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, qamrovi va sifatini oshirish, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu esa turli tarmoqlar uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash imkoniyatini kengaytirmoqda.



Odiljon MAMATKARIMOV, senator

qamrov darajasi qanchalik kengayganini yaqqol ko'rsatadi. Biroq har bir bitiruvchining munosib ish o'rni ega bo'lishi, bilim va salohiyatini namoyon etishi davlat va jamiyat oldida turgan

tomonidan inson kapitaliga qaratilayotgan e'tiborning amaliy ifodasidir.

Taqdimotda bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashning yangi institutsional mexanizmlarini joriy etish masalasiga e'tibor qaratilgan diqqatga sazovor. Unga ko'ra, barcha oliyoghlarda karyera markazlari faoliyatini to'liq yo'lga qo'yish va ularning hamkorlik asosida talabalarni aniq ehtiyojlarga muvofiq tayyorlash, o'qishni tugatgandan keyin esa ularni kafolatlangan ish o'rinlari bilan ta'minlash nazarda tutilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonini mehnat bozori ehtiyojlari bilan yanada yaqinlashtiradi.

Endi oliyoghlarda rahbariyati faoliyatini baholashda bitiruvchilar bandligi asosiy mezonlardan biri sifatida belgilanmoqda. Bu esa universitetlar mas'uliyatini yanada oshiradi, ularni bitiruvchilar taqdiriga befarq bo'lmaslikka undaydi. Ta'lim natijadorligini real ko'rsatkichlar orqali baholash imkonini beradi.

Prezidentimiz tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslar oliy ta'lim sohasida yangi sifat bosqichini boshlab berishga xizmat qiladi. Endi asosiy e'tibor raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash, uni munosib ish bilan ta'minlash va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratiladi. Bu esa oliy ta'lim tizimi iqtisodiyot ehtiyojlari bilan uzviy bog'langan, natijaga yo'naltirilgan va inson manfaatlariga xizmat qiluvchi zamonaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi.

tashkilotlarda himoya qilish, talabalarining amaliy ko'nikmalarini ish jarayoni bilan uyg'unlashtirish kabi choralar mutaxassis tayyorlash sifatini yangi bosqichga ko'tarishi shubhasiz. Ayniqsa, maqsadli dual ta'lim shaklini joriy etish tashabbusi bu borada muhim ahamiyatga ega. Unda ish beruvchi va oliyog' o'rtasidagi hamkorlik asosida talabalarni aniq ehtiyojlarga muvofiq tayyorlash, o'qishni tugatgandan keyin esa ularni kafolatlangan ish o'rinlari bilan ta'minlash nazarda tutilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonini mehnat bozori ehtiyojlari bilan yanada yaqinlashtiradi.

Endi oliyoghlarda rahbariyati faoliyatini baholashda bitiruvchilar bandligi asosiy mezonlardan biri sifatida belgilanmoqda. Bu esa universitetlar mas'uliyatini yanada oshiradi, ularni bitiruvchilar taqdiriga befarq bo'lmaslikka undaydi. Ta'lim natijadorligini real ko'rsatkichlar orqali baholash imkonini beradi.

Prezidentimiz tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslar oliy ta'lim sohasida yangi sifat bosqichini boshlab berishga xizmat qiladi. Endi asosiy e'tibor raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash, uni munosib ish bilan ta'minlash va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratiladi. Bu esa oliy ta'lim tizimi iqtisodiyot ehtiyojlari bilan uzviy bog'langan, natijaga yo'naltirilgan va inson manfaatlariga xizmat qiluvchi zamonaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi.

ILM-FAN — TEKNOLOGIK YETAKCHILIK SARI BOSHLAB, YANGI IQTISODIYOT POYDEVORINI YARATADI



Nilufar HAMIDOVA, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Aynan ilm-fan texnologik yetakchilik sari yo'l ochadi. Yangi iqtisodiyot poydevorini barpo etadi. Sanoat, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, energetika va boshqa sohalarning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bois, bilim, innovatsiya va kadrlar tayyorlashga o'z vaqtida ustuvor ahamiyat bergan davlatlariga taraqqiyotda ulkan natijalarga erishadi. Jahon tajribasi ham buni yaqqol tasdiqlaydi. Misol uchun, Janubiy Koreya ta'lim va ilm-fanga yo'naltirilgan keng ko'lamli investitsiyalar hisobiga yuqori texnologiyalar bo'yicha yetakchi davlatlardan biriga aylandi.

Singapur tabiiy resurslari deyarli mavjud bo'lmas-da, asosiy kapital sifatida aynan intellekt va ilmiy ishlanmalarni tanlab, Osiyoning yirik innovatsion markaziga aylandi. Bugun dunyoni lol qoldirayotgan Xitoy esa ilmiy tadqiqotlarni izchil qo'llab-quvvatlash, universitetlarni modernizatsiya qilish va kuchli texnologik platformalarni yaratish orqali qator yo'nalishlarda ilg'or pozitsiyalarni egallamoqda.

Bugun O'zbekiston ham ana shunday strategik yo'nalishda izchil harakatlanayapti. Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirishga yangi O'zbekistonda barpo etishning eng muhim shartlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Bundan o'n yillar oldin mamlakatimiz ilm-fani ham qator jiddiy muammolarni girdobida qolgan edi. Ilmiy sohada ish qabul past bo'lib, malakali mutaxassislar va yosh olimlarning xorijga ketishi kuchaygan, ko'plab ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnik bazasi juda ayanchil ahvolda tushib qolgan.

Ko'plab laboratoriyalarning yillar davomida yangilanmagani, zamonaviy uskuna va texnologiyalarning yetishmasligi yaqqol sezilar

Ilm-fan barcha davrlarda taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, davlatning jahon hamjamiyatidagi o'rini belgilab beruvchi muhim mezon bo'lib kelgan. Shu ma'noda, ilmiy tadqiqotlar, intellektual salohiyat va bu boradagi muassasalar faoliyatini rivojlantirmay turib, biror mamlakatning xalqaro maydonda raqobatbardosh bo'lishi va yuqori marralarga erishishi mushkul.



Taraqqiyot odimlari

edi. Achinarlisi, ilm-fan bilan ishlab chiqarish o'rtasida uzilish bo'lib, tadqiqot natijalari iqtisodiyotga yetarli darajada joriy etilmas, ilmiy faoliyat amaliy jihatdan o'z darajasini yo'qotib boshlagandi.

Yoshlarning ilmiy faoliyatga qiziqishi pasayib, tadqiqot muassasalarida katta avlod vakillarining ulushi ortib borayotgan, xalqaro hamkorlik va global tadqiqot loyihalaridagi ishtirok esa cheklanib qolgan. Albatta, bularning barchasi tizimli va chuqur islohotlarni talab qiladi.

2017-yildan boshlab O'zbekistonda ilm-fan, innovatsiyalar va ilmiy kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratila boshladi. Davlatimiz rahbari ilmiy jamoatchilik vakillari, yosh olimlar, akademik va tadqiqotchilar bilan bir necha bor uchrashib, sohaning ustuvor yo'nalishlari, istiqbolli o'sish nuqtalari hamda modernizatsiyaning asosiy vazifalarini belgilab berdi.

So'nggi yillarda Prezidentimizning ilm-fan va innovatsiyalar tizimini tubdan takomillashtirish, Fanlar akademiyasi faoliyatini samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot institutlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, fundamental va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirishga qaratilgan qator farmon va qarorlari qabul qilindi.

Ilmiy sohaga ajratilayotgan mablag' misli ko'rilgan darajada oshirildi. Olimlar va ilmiy xodimlarning ish haqi ko'tarildi. Zamonaviy laboratoriya hamda ilmiy markazlar ochildi. Tadqiqotlarni grant asosida qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kengaytirildi. Xalqaro hamkorlik faol rivojlantirilyapti. Tadqiqotchilar tayyorlashning yangi yo'nalishlari ochilmoqda. Texnoparklar, innovatsion markazlar va ilmiy ishlanmalarni tijoriylashtirish maydonlari tashkil etilmoqda.

Ayniqsa, yosh olimlar, doktorantlar va iqtidorli kadrlarni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy ilmiy muhitni shakllantirish hamda ilm-fan vakillarining nufuzini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Joriy yil 25-may kuni ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy faoliyatni samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar taqdimotida ham yuqori salohiyatli ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Endi mamlakatimizning uzoq muddatli ilmiy-texnologik rivojlanishi uchun ustuvor hisoblangan sun'iy intellekt, qayta tiklanuvchi energiya, oziq-ovqat xavfsizligi, tibbiyot, suv resurslari, yangi materiallar hamda seysmologiya

kabi sohalar bo'yicha ilmiy kadrlar tayyorlashda izlanuvchilarni qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi joriy etiladi.

Ayni maqsadda Prezidentimizning "Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini takomillashtirish, doktorantlarni tayyorlash jarayonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, dissertatsiya tadqiqotlarining sifati, ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirishda g'oyat muhim.

Hujjat bilan ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlari mutaxassisliklari uchun doktoranturaga umumiy qabul kvotasining kamida 60 foizi ajratildi. Tabaglashtirilgan stipendiyalar tizimi joriy etildi. Bunda ustuvor ilmiy ixtisosliklarga qabul qilingan doktorantlarga bazaviy stipendiya miqdorida 1,7 baravar oshirilgan stipendiya to'lanadi. Ustuvor ilmiy ixtisosliklarga qabul qilingan doktorantlarga zarur uskunalar va boshqa tovarlarni xarid qilish uchun har oyda bazaviy stipendiya miqdorigin 30 foizi miqdorida qo'shimcha mablag' yo'naltiriladi.

2027-yil 1-yanvardan ilmiy daraja berishda (mustaqil izlanuvchilar bundan mustasno) chet tili bo'yicha malaka imtihonini topshirish, dissertatsiya mavzularini yo'xatdan o'tkazish va dissertatsiya himoyasi to'g'risidagi e'lonni Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'lon qilish, yetakchi tashkilotda dissertatsiya muhokamasini o'tkazish kabi qator talablar bekor qilinadi. Oliy attestatsiya komissiyasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidan Fanlar akademiyasi tizimiga o'tkaziladi.

Shu bilan birga, ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar faoliyatini samaradorligini baholashning reyting tizimi joriy etiladi. Ilmiy kengashlar ma'qullagan dissertatsiyalar bo'yicha tanlov asosida, jumladan, xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda mustaqil ekspertiza o'tkaziladi va reyting natijalarida aks ettiriladi.

Hozir dissertatsiya himoyasi jarayonida amal qilayotgan tartib-taomillarning 50 foizi raqamlashtirish hisobidan qisqartiriladi. Mazkur jarayonda ko'p sonli hujjatlarni chop etish, avtoreferatlarini katta miqdorda tayyorlash hamda dissertatsiyalarni takroran muhokama qilish bilan bog'liq ortiqcha talablar bekor qilindi. Bu esa izlanuvchilar uchun qulay yaratish, vaqt va mablag' sarfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Eng muhimi, bugun ilm-fan uchun yangi avlod vakillarini tayyorlash ustuvor vazifalardan. Zero, yuqori malakali tadqiqotchilar, muhandislar, texnolog va tahlilchilarning puxta bilimi iqtisodiyotning asosiy tayanchiga aylanadi. Aynan ular innovatsiyalarni jadal joriy etish, mamlakatning texnologik mustaqilligini ta'minlash, milliy sanoat raqobatbardoshligini oshirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar yaratishda hal qiluvchi o'rin tutadi.



Olimpiada — 2026

Ayni paytda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Fan olimpiadalari markazida hayot qaynayapti. Aslida, har o'quv yili yakunida markaz faoliyati qizg'in voqeiklarga boy bo'ladi. Bu yil o'sha pallada o'quvchi yoshlarimiz bir necha mahalliy va xalqaro olimpiadada munosib ishtirok etdi.



61 TA MEDAL VA BILIMLAR ALMASHINUVI

MAMLAKATIMIZDA AL-XORAZMIY NOMIDAGI XALQARO MATEMATIKA VA INFORMATIKA OLIMPIADASI YAKUNLANDI

Texnik tafakkur, muhandislik salohiyatini rivojlantiruvchi muhandislik-ixtirochilik olimpiadasi, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro o'zbek tili va adabiyoti olimpiadasi, Osiyo fizika olimpiadasi, Italiyada o'tgan Yevropa qizlar informatika olimpiadasi, xullas, sanaydigan bo'lsak, ro'yxat uzoq davom etadi. Bir so'z bilan aytganda, olimpiadalar soniga hamohang yutuqlarimiz salmog'i ham ortib bormoqda. Xususan, Yevropa qizlar olimpiadasida 60 ta davlatdan 300 ga yaqin qiz orasida O'zbekiston terma jamoasi bu yil o'z tarixidagi eng yaxshi natijani qo'lga kiritdi — 2 ta kumush va 1 ta bronza medal.

Kumush medal egalari Oysha Mirzaitilayeva (Olmazor tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi) hamda Rayhona Sanaqulova (Navoiy shahridagi Prezident maktabi o'quvchisi) yaqindagina yakunlangan Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika va informatika olimpiadasida oltin medalni qo'lga kiritgan qonovonari.

Dunyoning 16 davlatidan 221 o'quvchi yosh kuch sinashgan mazkur olimpiada mamlakatimiz yoshlariga 11 ta oltin, 22 ta kumush va 28 ta bronza — jami 61 ta medalni tuhfa etdi.

Uch yildan buyon dasturlash sohasida olimpiadalarga qatnashib kelyapman, — dedi Oysha Mirzaitilayeva. — 2024-yilda Niderlandiyadan, 2025-yilda Germaniyadan bronza bilan qaytdim. Italiyada bo'lib o'tgan Yevropa qizlar informatika olimpiadasida oltin medal olishimga 10 ball yetmay qoldi. Biroq ayni olimpiadadan O'zbekistonga ilk kumushni olib kelganim bugungi yutug'imga kuch berdi.

Oysha Mirzaitilayeva kabi iqtidorli o'quvchilar olimpiadalarda qatnashish uchun ixtisoslashtirilgan maktablardagi muhit muhim ta'sir ko'rsatishini aytdi. Zero, bu yerda doim raqobat bor, yutuqlarga erishayotgan o'quvchilar hamisha boshqalarga ham kuch beradi. Umuman olganda, sog'lom raqobat orqali o'sish imkoniyati katta.

To'rtinchi marotaba o'tkazilgan mazkur olimpiada joriy yilning 1-7-iyun kunlari Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi "Renassans" oromohida tashkil etildi. Buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi nufuzli intellektual musobaqa 2025-yildan boshlab bir vaqtning o'zida ham matematika, ham informatika (dasturlash) fanlarini birlashtirgan holda o'tkazilmoqda.

Matematika fani bo'yicha ishtirokchilarga 2 kun davomida 4 tadan masala berilib, ularni yechish uchun 4 soat vaqt ajratildi. Informatika fani bo'yicha esa 2 kun davomida 4 tadan masalani bajarish uchun 5 soatdan vaqt berildi.

Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida O'zbekistonda an'anaviy tarzda tashkil etiladigan olimpiadaning asosiy maqsadi — yoshlar o'rtasida matematika va dasturchilikni rivojlantirish, xalqaro miqyosda raqobatbardosh yoshlarni aniqlash.

Xalqaro olimpiadani yuqori saviyada o'tkazish uchun hakamlar hay'ati tarkibiga Belarus, Eron,

Tojikiston, Turkiya, Rossiya kabi mamlakatlardan ko'p yillik xalqaro tajriba va yuqori salohiyatga ega ekspertlar, O'zbekistondan esa akademik umvoniga ega professorlar jalb etildi.

— Mazkur olimpiadaga yildan yilga qiziqish ham, ishtirokchi davlatlar soni ham oshmoqda, — dedi Fan olimpiadalari markazi direktori To'rayob Shermatov. — Xususan, joriy yilda 16 mamlakatdan o'quvchilar qatnashdi. Joriy yil ilk marta yoshlar onlayn ishtirok etdi. Bu orqali butun dunyodagi aynan matematika, informatikaga ixlosmand o'quvchilarni bir joyga yig'ish va tajriba almashish imkoniyati paydo bo'ladi.

Olimpiadaga tayyorgarlik jarayonida yuqori malakali xorijiy va mahalliy ekspertlar jalb etildi. Savollar darajasi aynan o'quvchilarning yoshiga moslab, masalalar xalqaro olimpiada dasturiga muvofiq tuzildi.

Xalqaro olimpiadalarning muhim bir jihati — dunyoning bilimdon yoshlarini bir nuqtada jamlashi. Bu yaqin do'stlik, madaniyatlar almashinuvi paydo bo'lishi bilan ahamiyatli. Qatnashchi davlatlar soni ortishi yoshlarimizga g'urur bag'ishlashi barobarida yanada kuchliroq bilim olishga, sog'lom raqobatchilikni undayapti.

Al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning 8-sinf o'quvchisi Humoyun Abduraufov olimpiadada ikkinchi bor ishtirok etdi.

— Tayyorgarlik yaxshi. Nasib qilsa, bu yil ham oltin olaman, — degan edi u olimpiadaning ochilish marosimida.

U so'zining ustidan chiqdi. — Olimpiadaga katta tayyorgarlik bilan keldik, — dedi Humoyun. — 5 soat davomida o'rtta masalani ishladik. Ko'plab bilimdon o'quvchilar bilan tanishdik.

G'alaba o'z-o'zidan kelmaydi. Mahoratti, tajribali ustozlarsiz unga erishib bo'lmaydi, albatta. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi bo'lishiga qaramay, informatika bo'yicha yoshlarni ushbu xalqaro olimpiadaga tayyorlagan Shohruh Rahmatullayevning taxminan 50 ga yaqin shogirdi bor. Ular milliy juda qattiq ishladik. Bolaularni guruhlarga ajratgan holda intensiv darslar o'tdik. Yutuqlar shunga yarasha bo'ldi, — dedi yosh murabbiy.

— Jarayonlar bu yil har doimigidan ham yaxshi tashkil etildi. Ayniqsa, oxirgi bir oyda juda qattiq ishladik. Bolalarni guruhlarga ajratgan holda intensiv darslar o'tdik. Yutuqlar shunga yarasha bo'ldi, — dedi yosh murabbiy.

Olimpiada doirasida xalqaro mutaxassislar ishlikida o'quvchi yoshlar uchun mahorat darslari tashkil etildi. Ishitirokchilar va mehmonlar yurtimizning madaniy va ma'rifiy merosi bilan yaqindan tanishtirildi.

Yakunlangan olimpiada matematika va informatika fani bo'yicha joriy yilning iyul oyida o'tkaziladigan Xalqaro matematika olimpiadasi hamda Xalqaro informatika olimpiadasi natijalariga tayyorgarlik bosqichi bo'lib xizmat qildi.

Munojot MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Poyezd shamol kabi yelib boradi. Dala-dashtlar, mevali bog'larda yaratuvchilik bilan andarmon odamlar quvonib qo'l ko'taradi. Qirmizi anorlari bilan dong taratgan Quva, usta hunarmandlar yurti Marg'ilon, uzumga kon Oltiariq, kulollar zamini Rishton, Bag'dod, Uchko'priq singari shahar va tumanlar, keng dala va bog'larni ortda qoldirib, Qo'qon shahriga yetib kelganimizda soat millari 13:15 ni ko'rsatayotgan edi. Poyezd yo'lovchilarni sog'-omon manzilga eltib qo'ydi.

Prezidentimizning Farg'ona viloyatiga tashrifi chog'ida vodik shaharlarini bog'laydigan zamonaviy elektropoyezd qatnovi yo'lga qo'yildi. Bunday ulkan yangilik xalqimizga yanada ko'tarinki ruh, quvonch berdi. Vodik ahli o'zaro gurunglarida halli-hamon yangi poyezd ta'rifini keltirmoqda. Ular mamlakatimiz yetakchisining jamoatchilik vakillari bilan birga elektropoyezdda Qo'qondan Marg'ilonga borgan haqida g'ururlanib so'zlayapti.



Ocherk

har jihatdan qulayligi bilan ma'qul keldi. Ertalab poyezdga o'tirdik, tushda Qo'qon shahrida bo'lamiz. Asosiy maqsad — Qo'qon shahrida qurilgan yangi uy-joylar, istirohat, madaniyat maskanlari bilan yaqindan tanishib, qo'qonliklar bilan hamsuhbat bo'lish. Bir kun shaharda bo'lib, ertaga shu poyezdda yana uyga qaytamiz. Bular bir qaraganda erakka o'xshaydi, ammo hammasi haqiqat.

— Namangan davlat universitetida tahsil olaman, — deya subhatga qo'shildi Fotimaxon Boyboboyeva. — Yangi elektropoyezd yo'lga qo'yilgani talabalar uchun juda yaxshi bo'ldi. Ota-onam Farg'ona viloyatining Rishton tumanida yashaydi. Ta'tilda uyga borish uchun ikki-uchta taksiga almashardik. Bu ortiqcha vaqt, mablag' talab qilgan. Yangi poyezd shunday ovoragarchiliklarga barham berdi.

Suhbat bilan bo'lib Andijon shahriga kirib kelganimizni bilmay qolibmiz. Elektropoyezd vodikning yirik kentida bir dam to'xtab, yana yangi manzillar tomon yo'l boshladi. Elektropoyezdni mahorat bilan boshqarayotgan mashinist Sobirjon Qosimovni subhatga chorlaymiz.

— Yangi poyezdda nafaqat yo'lovchi, balki mashinistlar uchun ham alohida qulaylik, imkoniyatlar bor. Hammasi raqamli texnologiyalar asosida ishlaydi. Ayniqsa, xavfsizlikka alohida e'tibor berilgan. Vagonlar to'liq videokuzatuv va zarba kuchini kamaytiruvchi kresh-tizim bilan himoyalangan. Bularning barchasi tezkor, xavfsiz harakat qilgan holda manzilga yetib borishni ta'minlaydi. Yangi poyezdlar qatnovi boshlanganiga ko'p bo'lgani yo'q. Ammo bu yo'nalish bo'ylab harakatlanish istagidagi yo'lovchilar safi tobora ortib boryapti.

Poyezd shamol kabi yelib boradi. Dala-dashtlar, mevali bog'larda yaratuvchilik bilan andarmon odamlar quvonib qo'l ko'taradi. Qirmizi anorlari bilan dong taratgan Quva, usta hunarmandlar yurti Marg'ilon, uzumga kon Oltiariq, kulollar zamini Rishton, Bag'dod, Uchko'priq singari shahar va tumanlar, keng dala va bog'larni ortda qoldirib, Qo'qon shahriga yetib kelganimizda soat millari 13:15 ni ko'rsatayotgan edi. Poyezd yo'lovchilarni sog'-omon manzilga eltib qo'ydi.

Poyezddan uzoqlashar ekanmiz, kimdir maroqli sayohat, boshqalar esa manzilga tez yetib kelganidan quvonib, yaqinlariga xabar beryapti. Elektropoyezd esa safarga oshiqqan yangi yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishga shay turibdi. U hayotidan mamnun, ertangi kunga ishonchi mustahkam yurtdoshlarimizni yana o'z bag'riga olib, vodik bo'ylab yo'l tortadi.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

VODIY BO'YLAB SHUKUHLI SAYOHAT

Qo'qondan Marg'ilonga yangi poyezdda borish gashti boshqacha...

Aholiga qulay, xavfsiz va arzon transport xizmatlari taqdim etish uchun bajarilgan loyiha qisqa fursatda minglab odamlar og'irini yengil, uzog'ini yaqin qila boshladi. Endi bu manzildan safarga oshiqqan, mehmonga chog'langan yo'lovchilar safi kundun kunga ortib bormoqda.

— Ming bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rgan afzal — hikmatiga amal qilib, yo'l hozirligini ko'rdim. Qo'qon temir yo'l vokzaliga yetib kelganimizda soat 6:30 edi. Tuni bilan yoqon yomg'ir qadim shaharga o'zgacha fayzu tarovat bag'ishlagandi. Ufq toqidan bosh ko'tarayotgan quyosh nurlari bilan uyg'unlashib ketgan osmon ko'm-ko'k, musaffo havo dilga huzur bag'ishlaydi. Temir yo'l bekatida yo'lovchilarga hozirlab qo'yilgan zamonaviy elektropoyezd belgilangan manzil sari yurishga tayyor. Yo'lovchilar izma-iz kirib kelyapti.

Furqat tumani Navbahor mahallasida kamolga yetgan Sayyora Ahmadjonova bilan shu yerda tanishdik. U University of Business and Science (Biznes va fan universiteti) Namangan filialining 3-bosqich talabasi ekan.

— Avval manzilga yetib olish uchun ko'pincha taksiga 100 ming so'm sarflardik, — deydi u. — Endi yo'l xarajatlarimiz to'rt hissa kamaydi. Qolaversa, qulay, shinam, har qanday ob-havo sharoitida xavfsiz muhitda manzilga yetib olish imkoniyati bor. Vagonlarda qilm nazorati, salonda havoni tozalash va isitish tizimlari bor. Yumshoq

va qulay o'rindiqlar, gadjetlar uchun USB portlar va bepul Wi-Fi kabilar yo'lovchilarga qulaylik yaratayapti.

Ushbu yo'nalishda kuniga 1500, yiliga esa taxminan 600 ming yo'lovchini tashish imkoniyati bor. Poyezdda hamma narsa yo'lovchilar manfaatiga xizmat qiladi. Tezkor, qulay, xavfsiz va yuqori darajada xizmat. Olti vagonidan iborat poyezdda jami 586 ta o'rin bor. Vagonlarda nogironligi bo'lgan, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ham alohida sharoitlar hozirlangan. Velosiped tashish uchun mahkamlagichlar va ma'lumot beradigan elektron tablolar o'rnatilgan.

Temir yo'l bekatida dispetcherning 6393-yo'nalishdagi Qo'qon — Namangan — Andijon — Marg'ilon — Qo'qon aylanna poyezdi belgilangan manzil sari harakatlanayotgani haqidagi jarang ovozini yangradi. Poyezd ohista ohidmaydi. Ilk safarga chiqqan yo'lovchilarning shivir-shivirlari quloqqa chalinadi: "Zo'r ekan, qara, yurayotgani ham bilinmaydi, shovqinsiz, keng, yurug'..."

Poyezd qadim shaharning so'lim manzillarini bir zumda ortda qoldiradi. Dang'ara tumanining shimoliy kengliklari uzra yastabni yotgan qum barxanlarini yorib, shitob bilan yelib boradi. Bir zumda ona tabiatning yovvoyi manzaralari bilan ro'baro' bo'lamiz. Qum barxanlari uzra yastangan yulg'unzorlar, turfa jonivorlar, ko'l bo'yilarida qo'nim topgan laylaklar yo'lovchilar



hayratini yanada oshiradi. Bir to'p qush biz bilan bellashmoqqa chog'lanib qanot qoqadi.

Tabiatning takrorlanmas manzaralaridan yo'lovchilar o'zgacha zavq oladi. Hayrat va havasga to'lgan bu daqiqalarni o'tkazib yubormaslik ilinjida suratga olishga oshiqadi. Oila a'zolari bilan vodik shaharlari bo'ylab sayohatga chiqqan Lazixon Jalolovning quvonchi bir olam.

— Bunday sayohatga birinchi bor chiqishimiz, — deydi hamrohim 5 yoshli o'g'lining zavqu shavqidan quvonib. — Safarimiz maroqli o'tyapti. Poyezd vagonlaridagi sharoitni qarang,

hamma narsa inson uchun. Yangi poyezd odamlarni bir maqsad yo'lida hamjihat bo'lishga chorlamoqda. Qisqa fursatda qanchadan qancha yo'lovchi bilan tanishdik, do'stlar ortirdik. Yo'l-yo'lakay shahar va qishloqlardagi o'zgarishlar, yangi yo'l, turar joy maskanlarini ko'rib, shu yurning farzandi bo'lganidan ko'nglim faxr-iftixorga to'ldi.

Dang'ara tumani Katta Ganjiravon qishlog'ida umrguzaronlik qilayotgan Sherali Mamadaliyev bu yil 70 yoshni qarshi olibdi. Harakatlari chaqqon, nigohlari tiyrak nuroniy vodik shaharlari bo'ylab

Mulohaza

IJOD AHLIGA QANOT VA ILHOM

Dunyo xuddi dengizdagi beshikday chayqalib turgan, insonlar ongi va qalbi oson boy berilayotgan bir davrda ma'naviyat va madaniyat qablarni qutqaruvchi yetakchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Prezidentimizning 2026-yil 15-yanvardagi "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori shu yurt farzandi sifatida mening ham ko'nglimni tog'day ko'tardi. 2026-2030-yillarda aholining kitobxonlik darajasini oshirish, bir odamning yillik o'rtacha kitob o'qish ko'rsatkichini o'ntaga yetkazish belgilandi. Kitob o'qish madaniyatini oshirish davlatimiz rahbari qarori bilan mustahkamlangan ekan, biz ziyolilar bu yo'lda targ'ibotchi bo'lib xizmat qilishimiz kerak.

Bolaligimiz dalada o'tdi. Maktabni tugatgan yilimiz mamlakatimiz mustaqilligi e'lon qilindi. Bu xabarni eshitib, otamga "Endi paxtaga chiqmaymizmi?" deb savol berganmiz. Tepamizdan aeroplanlar dori sepib o'tib turib paxta terganimiz, sariq kasaldan oylab maktabga borolmaganimiz, maktabdan pilla terishga va paxta yaganasiga olib ketilganimiz, sholi o'rib, oyoqlarimiz shamollab, bir sinf bola shifoxonaga tushganimiz zahmati o'sha kunning baxtiyorligi bilan almashgan. Kitob o'qishga qiziqish bois, furtuklarimiz cho'ntagida, nonxaltamizda doim biror kitob yurardi. O'sha paytlari ba'zi kitoblarni o'qish "moda" tusiga kirgan, o'qiganlarimizni bir-birimizga aytib berardik.

Mustaqillik qancha katta voqea bo'lsa, mamlakat oyoqqa turib ketishi shuncha katta zahmatlar talab qildi. Mustaqil davlatning asosiy agrar ishchi kuchi yana maktab o'quvchilari, talabalar bo'lib qoldi. Yana o'qishdan paxtaga, dehqonchilik ishlariga jalb qilinardi. Hozir eslasak, bunga juda uzoq yillar bo'lgandek tuyuladi. Lekin o'n yilga yaqin vaqt davomida juda katta o'zgarishlarga erishdik. O'qituvchilar,

shifokorlar, o'quvchi va talabalar majburiy mehnatga mutlaqo jalb qilinmaydigan bo'ldi!

Shiddat bilan o'tayotgan kunlarimizga yangiliklar va o'zgarishlar shunchalar tez kirib keldiki, qaysi biridan xursand bo'lishga, qaysi bir yangilikka ofarin deysingiz ulgurmay qoldik. Asta-sekin bu yangiliklarga ko'nikdik va aslida shunday bo'lgandek qabul qildik. Bunday katta o'zgarishlar davlatimiz rahbarining jasorati, xalqparvarligi, inson qadrini kun tartibiga olib chiqqani tufayli ro'y berdi.

Endi chin ma'noda hozirgi yoshlarga havas qilamiz. O'qiyman desa, maktablarning turi — ixtisoslashgani ko'p. Ayniqsa, oliy ta'lim olish bir qadar osonlashdi. Test tizimi yengillashtirilib, yildan yilga yangi metodlar tatbiq etilyapti. Hatto o'rta ta'lim davrida ba'zi fanlardan sertifikat qo'lga kiritib, talaba bo'layotgan yoshlar ko'paydi. Davlatimiz qatorida xususiyy oliy ta'lim muassasalari talabalarni qabul qilayotgani ham katta imkoniyat. Talaba bo'lish orzusida yillab hujjat topshirib, o'qishga kira olmagalar qancha. Ularning qanchasi iste'dodli, bilimli yoshlar edi.

Yaqinda biz o'qigan Jomboy tumanidagi 3-umumta'lim maktabida yoshlar bilan uchrashuvda shularni aytib berarkanman, ko'zimga yosh keldi. Bolalarga savol berdim:

"Nima uchun Prezidentimiz kitob o'qish madaniyatini oshirish borasida qaror qabul qildi, o'ylab ko'ramizmi?". Bolalar kitob o'qigan bola yomon odatlarga o'rganmaydi, kitob o'qisak yaxshi o'qishlarga kiramiz deb javob berdi.

— Fikrlaring to'g'ri, — dedim ularga. — Yana bir mulohaza bor. Kitob bilan kitobni farqlab o'qish kerak. Bunda sizga adabiyot muallimi, ota-onangiz ko'makdosh bo'ladi. O'zlaring kuzatapsizlar, qaysi mamlakatda bir o'quvchi tengdoshini boshqa millat vakili bo'lgani uchun o'ldirib qo'ydiki, biri maktabga quruli olib kelib o'tishma uyushtirdi. Bu illatlar nimaning hosilasi? O'ylada kitobxonlik yo'qligining, bolalarni moddiy ta'minlab, ma'naviy och qoldirganning samarasi. Bizga davlatimiz kitob o'qisak, mashina va da' qilyapti. Shu mashinani siz olishingiz mumkin. Sizga havas qilib boshqa o'rtog'laringiz kitob o'qishga odatlanadi.

Mana shunday uchrashuvlardan doim ruhlanam. Bolalar ko'zi yashnab savol tashlaydi, o'z ijodini uyala-uyala o'qib beradi. Hali she'rning vazniyu qolipiga tushmagan bu ijod namunalarni rag'batlantiraman, xayrixoh bo'laman. Ertaga shu o'quvchi shoir bo'lmasligi mumkin. Ammo kitob o'qi'di, targ'ib qiladi. O'ila boshlig'i bo'lganida farzandlariga yaxshi tarbiya beradi. Prezidentimiz uzoqni ko'zlab chiqqan qarorining mohiyatini angalganday bo'ladi bolalar.

1-iyun kuni Prezidentimiz madaniyat va san'at sohasi vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi. Bu uchrashuvni katta hayajon bilan kuzatdik. Ijodkorlarni rag'batlantirish va yosh iste'dodlarni ko'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizim joriy etilishi belgilanganini eshitib, xursand bo'ldik. Har yili Milliy ijodkorlar qurultoyi o'tkazilishi, qurultoyda yil davomida eng yaxshi natija ko'rsatgan ijodkorlarning badiiy kechalari tashkil etilib,



ular munosib belgilab berildi. Bir qancha yo'nalishlarda ijodkorlarga katta-katta imtiyozlar berilgani, buning uchun davlat byudjetidan yirik mablag'lar ajratilishi bir ijodkor sifatida qalbimni g'ururga to'ldirdi. Hali adabiyot va san'at vakillari bu darajada imkonga ega bo'lganmide? Hozir maoshlarga ustamalar, konsert-tomosh faoliyati uchun imtiyozlarni, kitob chop etish, eng yaxshi asarlar yozuvchilariga har oyda besh milliondan qo'shimcha maosh to'laniishi, uy-joy ipotekasiga imtiyozlar, ijara imtiyozlarini sanab, sanog'iga yeta olmay hisobda adashib ketdim. Prezidentimiz adabiyot, madaniyat va san'at vakillaridan 167 nafarini davlat mukofoti bilan taqdirladi. Hayit ayymoi arafasida bir qancha marhum yozuvchi va shoirlar, san'at ustalari yuksak mukofotlarga munosib ko'rildi. Qalblar sevinchga to'ldi.

Xonadonlarda bayram bo'ldi. Ayniqsa, shuncha so'z va sahna san'atkorlarining muxlisarlari katta quvonch bilan bu xushxabarni qarshi oldi. Har yili ming nafar shoir, yozuvchi, madaniyat va san'at xodimlari, rassom va hunarmandlarga uy-joy olish uchun ipoteka krediti boshlang'ich to'lovining 50 foizi qoplab berilishi belgilab berildi. Bu katta imkoniyatlar sohaga kirib kelayotgan yoshlarga ham ilhom ulashadi.

O'sha uchrashuvdan beri o'ylayman. Biz sovetning mehnatda sindirilgan avlodi edik. O'qishni istasak, egatlarida, daraxtlar soyasida tushlik payti o'qib olardik. Kitob o'qish ishtiyoqi, maktabga qaytish dardi bilan yashaganmiz. Xullas, bolalar mehnati, majburiy mehnat degan tushunchalar yo'qolguniga qadar yillar, qancha-qancha

odamlarning bolaligi, yoshligi dalalarda sovruldi.

Maktabni tugatgan yilim o'qishga kirish uchun tibbiy ko'rikdan o'tdim. Shunda suygim shamollaganidan xabari bor Safarov degan shifokor revmatizm tashxisi bilan ma'lumotnoma to'ldirib berdi. Hujjatimni qabul qilmadi. Borib sog'lom deb yozdirib kel, o'qishga kirsang, paxtadan olib qolishga g'alva bo'lasan, deysingiz. O'shandagi asabzovurliklar, ko'zyoshlar...

Keyin otam rahmatli boshqa o'qishga olib borgan...

Bugun talaba farzandimga qarab quvonaman. O'zbekchadan tashqari uch tilni mukammal o'rgandi. O'qish va o'rganish. Bo'sh vaqti qolsa, "Zakovat"ga boradi. Bugungi yoshlarning intilishlarini, imkoniyatlardan o'rinni foydalanayotganini ko'raman uning kamolida.

Ayniqsa, mamlakatimiz rahbari soha vakillarining taklif va mulohazalariga quloq tutgani e'tiborli bo'ldi. Takliflar tinglandi, kerakli topshiriqlar berildi. Oldinda munosiblik va kamarbastalik qoldi. Kino va spektakllar, konsert va ijodiy kechalar mana shunday samimiy muloqotlardan ilhomlanib ishlab chiqiladi.

Mamlakatimiz mustaqilligining 35-yilligi nishonlanadigan bu yil ijod ahli uchun, ayniqsa, esda qolarli bo'ldi. Oldinda ijodiy uchrashuvlar, targ'ibot tadbirlari, bayram va sayillar mo'li. Tarixiy uchrashuvdan ruhlaniib, Prezidentimizning tashabbuslarini shahar va qishloqlarga keng yoyish ijod ahli zimmasida.

Adabiyot va san'at millat rivojida yetakchi kuch. Mana shu kuchning ilhomchisi bo'lgan bunday samimiy uchrashuvlarni ijod ahli ko'tarinkilik bilan qabul qiladi. Yana va yana qizg'in ijod qiladi. Bu yo'lda rag'bat va imtiyozlar qanot bo'lajak.

Manzura SHAMSIYEVA, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2026-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646.

30166 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-mabaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Munajat Mo'minova Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy